

Xaruki Murakami. Shamol qo'shig'ini tingla (roman)

Chop etilgan [22.09.2017](#) Muallif [Ziyouz.uz](#)

«Mukammal matn deganlari, aslida, yo'q narsa. Xuddi butkul umidsizlik bo'lmaganidek». Buni menga talabaligimda tasodifan tanishib qolgan bir yozuvchi aytgandi. Bu nimani anglatishini men ancha keyin tushundim — o'sha kezda esa, bu, harqalay, bir tasalli edi. Mukammal matn yo'q narsa, derdim o'zimga o'zim.

Lekin baribir biror narsa yozishga kirishdim deguncha, umidsizlikka tushardim. Chunki men yoza oladigan mavzular doirasi tor edi. Masalan, fil haqida nimadir yoza olardim, ammo fil bilan muomala qilishni eplashim dargumon. Shunaqa gaplar.

Sakkiz yil meni bu ikkilanish tark etmadi. Roppa-rosa sakkiz yil. Ozmuncha vaqt emas. Lekin biror-bir yangi narsani o'rganayotganingda, qarish unchalik azobli tuyulmaydi. Mavhumroq fikrlaganda shunday xulosaga kelasan.

Yigirma yildan ortiqroq vaqtdan beri men doim aynan shunday yashashga urinib kelaman. Bunga javoban behisob shapaloqlar tushdi, tushunmovchiliklar, aldovlarga duchor bo'ldim, biroq ayni paytda — bebaho tajriba ham orttirdim. Allaqanday odamlar kelishardi, meni gapga solishardi, tasir-tusur bostirib, xuddi ko'prikdan o'tgandek bosib-yanchib o'tib ketishar va boshqa ortga qaytishmasdi. Men bo'lsam jimgina o'tirardim, hatto og'zimni ochmasdim. O'ttizni to'ldiradigan oxirgi yilni men shu alpozda qarshiladim. Hozir esa: bir boshdan gapirib bersam-chi, degan fikrga keldim.

To'g'ri, bu biror-bir muammoni hal qilmaydi, aytib berganim bilan, baribir, hammasi aslidagiday qolaveradi, deb qo'rqaman. Oxir-oqibat, matnlar o'z-o'zini davolash uchun emas, balki davo topish yo'lida urinib ko'rish uchungina yoziladi.

Ammo barchasini ro'y-rost gapirib berish o'lguday qiyin. Rostgo'y bo'lishga qanchalik intilsam, zarur so'zlar zulmat qa'riga shunchalik chuqurroq botib ketayotgandek tuyulaveradi.

O'zimni oqlamoqchi emasman. Sirasini aytsam, hozircha bundan tuzukroq yozolmayman. Ortiqcha bir nima deya olmayman. Ha, darvoqe, men yana bir nimani o'ylayman. Tuyqusdan, kelajakka — besh-oltimi yoki o'nlab yillarmi — oldinga o'tib olsam, ozod bo'lganimga guvoh bo'larman? O'shanda mening fillarim yalanglikka qaytishar va men dunyoga hozirgidan ko'ra chiroyliroq so'zlar topib aytarman.

* * *

Asar yozishda men Derek Xartfildan ko'p narsani o'rgandim. Hamma narsani o'rgandim, desam ham bo'ladi. Xartfildning o'zi, afsuski, har jihatdan besamar yozuvchi edi. Agar o'qisangiz, o'zingiz ko'rasiz. Dag'al matn, ahmoqona mavzular, qovushmagan syujetlar. Lekin, shularga qaramay, u matnni qurolga aylantira oladigan kamdan-kam yozuvchilardan biri edi. Xemingueyday yoki Fittsjeraldday zamondoshlaridan jangovarlikda hecham qolishmasdi. Faqat Xartfildga umrining oxirigacha dushmani topish nasib etmadi. Ochig'ini aytganda, uning besamarligiyam mana shunda edi. Sakkiz yilu ikki oy u mana shu samarasiz jangu jadalni olib bordi, keyin esa vafot etdi. 1938 yilning iyun oyi, quyoshli yakshanba tongida o'ng qo'lida Gitlarning suratini, chap qo'lida esa shamsiyani ushlab, o'zini «Empayr-Steyt-Bilding» tomidan tashladi. Uning o'limi, xuddi hayoti kabi, jiddiy gap-so'zlarni keltirib chiqarmadi.

Xartfildning birinchi kitobi mening qo'limga tasodifan tushib qoldi — ular qayta nashr etilmagandi. O'shanda men o'rta maktabni tugatayotgandim va chotimdagi teri kasalligidan qiynalib yurgandim. Kitobni amakim sovg'a qildi, uch yildan keyin u ichak saratoni bilan og'ridi. Tig' tegmagan joyi qolmadiyov, tanidagi borki tirqishlarga plastik naychalar tiqib tashlashdi — oxiri azob-uqubat chekib, qazo qildi. Uni oxirgi safar ko'rganimda jigarrang terisi bujmayib qolgan, mug'ambir maymunchaga o'xshardi.

* * *

Mening, hammasi bo'lib, uchta amakim bor edi — yana biri Shanxay yaqinida o'lgan. Urush tugaganidan ikki kun o'tib, o'zi ko'mgan minani bosib olgan. Tirik qolgan yolg'iz amakim ko'zboyloqchi bo'ldi va kurort joylarda yurib tomosha ko'rsatadi.

* * *

Xartfild asarning yaxshisi haqida shunday degan: «Asar yozish jarayoni yozayotgan kishi bilan uning tevaragidagilar o'rtasidagi masofani tasdiqlashdan boshqa narsa emas. Bu yerda tuyg'ular emas, chiziqli kerak». («Sizga yaxshi bo'lsa, nimasi yomon?», 1936 y.) Qo'limda chizg'ichni mahkam siqib, qo'rqa-pisa tevarakka alangladim. Bu prezident Kennedi vafot etgan yili ro'y bergandi — demak, o'n besh yil o'tibdi. Roppa-rosa o'n besh yil men faqat qo'lga ilinganini uloqtirish bilan mashg'ul bo'libman. Xuddi motori ishdan chiqqan samolyotning vaznini yengillatish uchun dastlab yuklarni, so'ngra o'rindiqlarni va eng oxirida esa badbaxt yordamchi uchuvchini uloqtirishganday — men ham o'n besh yil bo'lar-bo'lmas narsalarni itqitdim. Biroq evaziga hech narsa olmadim.

To'g'ri qilganman, degan ishonch yo'q. Yengil bo'ldi, bu rost — ammo ajalga duch kelgan chog'da, mendan nima qoladi, degan o'ydin qo'rquvga tushaman. Jasadimni kuydirishgach, nahotki bir uyum ustixon qolsa?

«Ko'ngling qorong'u bo'lganda, faqat qayg'uli tushlar ko'rasan. Agar butkul qop-qora bo'lsa, unda hech nima ko'rmaysan». Marhum buvim shunday derdi.

Oqshom, buvim qazo qilganda, men qo'limni uzatib, uning qovoqlarini ohista yopdim. Shu soniyada buvim yetmish to'qqiz yil ko'rgan tush, toshko'chani savalab o'tgan qisqa yomg'irday, tinchgina nihoyasiga yetdi. Hech nima qolmadi.

* * *

Yana matn haqida. Oxirgi marta.

Men uchun asar yozish — azobli jarayon. Ba'zan bir oy mobaynida arzigulik bir gapni qog'ozga tushirolmaysan. Yana, gohida, uch kechayu kunduz tinim bilmay yozasan — keyin yozganlaringni boshqalar qandaydir boshqacha talqin qilishadi.

Lekin, baribir, yozish — bu ko'ngil mashg'uloti. Yozganingga mazmun kiritish hayotingni ma'niliroq qilishdan xiyla oson.

O'smirlik chog'imda shularga aqlim yetganini payqab, chunonam ajablangandimki, bir hafta esim ketib yurgandim. Miyani ozgina ishlatsam dunyo menga o'zini bor-budi bilan namoyon eta boshlaydiganday, vaqt jilovini qo'limga ola biladiganday tuyulardi... Go'yo hammasi men xohlaganimday bo'ladi, deb o'ylardim.

Buning tuzoq ekanini ancha keyin payqadim. Yon daftirimning varaqlarini chiziqli chizib ikkiga bo'lib, o'ng tomoniga shu paytgacha erishgan narsalarimni, chap tomoniga esa yo'qotgan narsalarimni yozdim. Yo'qotgan, bosib yanchib tashlagan, tashlab ketgan, qurbon qilgan, sotganlarim... Oxirigacha baribir sanab chiqolmadim.

Bizning nimanidir anglashga urinishlarimiz bilan rostakamiga tushunish o'rtasida tubsiz jarlik bor. Qo'limizdagi chizg'ich qanchalik uzun bo'lmasin, bu jarlikni o'lchay olmaymiz. Qog'ozga nimaiki yozmay — barisi ro'yxatdan iborat bo'lib chiqadi. Hech qanaqa roman ham, adabiyot ham emas — umuman san'at emas bular. Shunchaki, tik tortilgan chiziqli bilan ikkiga bo'lingan yon daftarcha. Nasihatgo'ylikka kelsak — ha, ehtimol, undan ham bir chimdim bordir.

Agar sizga san'atu adabiyot kerak bo'lsa, yunonlarni o'qing. Axir, haqiqiy san'atning yaralishi uchun quldorlik tuzumi zarur-ku. Qadimgi yunonlarda qullar yerga ishlov berishgan, ovqat pishirishgan, uzun kemalarda eshkak eshishgan. Shaharliklar esa, bu paytda O'rtayer dengizi sohillarida quyoshga toblanishib, she'r yozish va matematika mashqlari bilan mashg'ul bo'lishgan. Bu haqiqatdan ham san'at bo'lgan.

Tun yarmida bo'm-bo'sh oshxonasidagi muzlatkichni titkilayotgan odam yozgan matn qanaqa bo'lishi mumkin? Faqat mana shunaqa yoza oladi, xolos.

Bu — men o'zim haqimda.

Voqea 1970 yilning 8 avgustida boshlanib, 18 kundan keyin — ya'ni o'sha yilning 26 avgustida tugadi.

— BOYLARNING BARI — SULLOH!

Kalamush tirsagini peshtaxtaga tiragancha boshini men tarafga burib zorlanib baqirdi. Bu so'zlar ortimdagi allaqanday qahva maydalagich-idishga taalluqli ekani ehtimoldan uzoq emas edi. Men yonginasida o'tirardim va atay baqirib gapirishga hecham hojat yo'q edi. Harqalay, baqirib olgach, Kalamush qoyil qilganday g'o'ddaydi va yana pivoni qo'liga oldi.

Aytgancha, Kalamushning baqirganini atrofdagilardan hech kim eshitmadi. Tor bino odamga liq to'la, hamma shunday baqirib-chaqirar edi. Bu manzara cho'kayotgan kemani eslatardi.

— Haromxo'rlar! — dedi Kalamush va boshini ma'nosiz chayqadi. — Axir, bu muttahamlarning qo'lidan biror-bir ish kelmaydi. Puldor basharaga ko'zim tushsa, tamom, ko'nglim ayniydi.

Quvvati past pivo quyilgan stakandan ko'z uzmay boshimni silkib imo qildim. Kalamush jim bo'ldi va qo'llarini go'yo gulxanga toblayotganday — o'ngi-tersiga o'girib, ozg'in barmoqlariga termilib qoldi. Men o'zimni kamtarlikka olib, shiftga qaradim. U o'nta barmog'ini birma-bir taftish qilib chiqmagunicha gap qovushmaydi. Doim shunaqa.

Yoz bo'yi Kalamush ikkimiz 25 metrli hovuz to'ladigan pivoni ichib qo'ydik va «Jeyz-bar» yerini besh santimetr qalinlikda yeryong'oq po'chog'i bilan to'ldirdik. Agar shunday qilmaganimizda, bilmadim, qanday yashardik, chunki yoz o'lguday zerikarli edi.

«Jeyz-bar» peshtaxtasining orqasida tamaki tutunidan rangi uniqib ketgan surat osig'liq turardi. Qiladigan ishim yo'qligidan soatlab unga termilsam ham jonimga tegmasdi. Undagi tasvir jumboqning o'zi — Rorshax testiga mos kelardi. Masalan, men ikkita yashil maymunchani ilg'adim — ular yuzma-yuz o'tirib, bir-biriga ikkita shishirilgan tennis koptokchasini otib o'ynayotir.

Shu haqda barmen Jeyga gapirganimda, u suratga diqqat bilan qaradi va pinagini buzmay dedi:

— Maymun bo'lsa maymun-da...

— Sen nimani ko'rayapsan? — qiziqdim men.

— Chap tomondagi maymun — sen, o'ng tomondagisi — men. Men senga pivo otayapman, sen menga — pul.

Aytilgan gapdan chuqur ta'sirlangan ko'yi pivoni sipqardim.

— Ulardan ko'nglim ayniydi!

Kalamush barmoqlarining taftishini tugatib, mavzuga qaytdi. Boylarni Kalamush birinchi marta so'kayotgani yo'q — rostdan ham ularni ko'rarga ko'zi yo'q edi. O'zi kambag'al oiladan chiqmagan, biroq buni yuziga solsangiz: «Bunday bo'lganiga men aybdor emasman-ku!», — derdi. Ba'zan (ayniqsa, pivoni ko'proq ichganimda): «Yo'q, sen aybdorsan!» — derdim va keyin o'zimdan jirkanib ketardim. Kalamushning gaplarida baribir oz bo'lsayam haqiqat bor edi.

— Nega boylarni yomon ko'rishimni bilasanmi?

O'sha kuni kechqurun Kalamush mavzuni kengaytirmoqchi bo'ldi. Bu gap hali shunchalik chuqurlashmagan edi.

Men bilmayman, deb bosh chayqadim.

— Chunki, umuman aytganda, boylar hech ham miyalarini ishlatishmaydi. Qo'lida chizg'ichi bo'lmasa ketini qashiy olmaydi.

«Umuman aytganda» — Kalamushning yaxshi ko'rgan gapi edi.

— Tushunarli.

— Bu ifloslar asosiy narsa haqida o'ylashmaydi. Faqat o'zlarini o'ylayotganday qilib ko'rsatishadi. Bilasanmi, nima uchun?

— Xo'sh, nimaga?

— Ularga buning keragi yo'q. To'g'ri, boy bo'lish uchun, sal bo'lsayam miya kerak. Boyman deb kerilish uchun esa — shart emas. Bu xuddi yoqilg'isiz ishlaydigan Yer yo'ldoshiga o'xshaydi. Eshilib-aylanishni eplasang bo'ldi. Lekin men bunaqamasman, sen ham bunaqamassan. Biz yashash uchun hamma narsani o'ylashimiz kerak. Ertangi ob-havodan tortib vanna tiqinining o'lchamigacha. To'g'rimi?

— Ha.

— Shunaqa.

Aytgisi kelgan hamma gaplarni aytib bo'lib, Kalamush cho'ntagidan dastro'mol oldi va zerikkan qiyofada burnini artdi. Gapining qaysisi jiddiy, qaysisi hazil ekanini men hech tushuna olmasdim.

— Lekin, axir, bir kun hammamiz ham o'lamiz-ku, — gap tashladim men.

— O'z-o'zidan. Hamma ham qachondir o'ladi. Ammo ungacha ellik yil yashash kerak-da. Ellik yil o'ylab yashash — bu, umuman aytganda, besh ming yil hech narsani o'ylamay yashashdan ancha og'ir. To'g'rimi?

To'g'ri-da axir...

4

Kalamush bilan uch yil avval, bahorda, universitetga kirgan vaqtimizda tanishdim. Ikkalamiz ham bo'kib ichdik, nima bahonada ichganimiz esimda yo'q, tonggi soat beshda uning olti yuzlik qora «fiat»ida ekanmiz. Birovnikiga mehmonga bormoqchi edik, shekilli. Nima bo'lganda ham, o'lguday mast edik. Buning ustiga, spidometr saksonni ko'rsatardi. Omadgina bizni asrab qoldi: bog' to'sinini buzib o'tib, rododendronlar uyumini yer bilan bitta qilgancha, tosh ustunga zarb bilan borib urilsak ham biror joyimiz lat yemadi. O'zimga kelgach, pachoglangan eshikni tepib tushurib, tashqariga chiqdim. Kapot qopqog'i o'n metrgacha, maymunlar solib qo'yilgan qafas yoniga uchib borib tushgan, «fiat»ning old tomoni esa aynan ustunga o'xshash shaklda pachoglangandi. Qo'pollik bilan uyg'otib yuborilgan maymunlar dunyoni boshiga ko'tarishardi.

Kalamush rulni changallagancha ikki bukilib olgan — qayeridir jarohatlangani uchun emas, bir soat oldin yegan pitstsasini ko'rsatkichlar taxtasiga qusayotgani uchun shunday bukchayib olgandi. Mashina tomiga chiqib, tuynukdan ichkariga qaradim.

— Qalaysan?

— Yomon emas... Sal ko'proq ichib qo'yibman. Blo'o'q...

— Chiqa olasanmi?

— Tortsang chiqaman.

Kalamush dvigatelni o'chirdi va ko'rsatkichlar taxtasidagi sigaret qutisini olib cho'ntagiga tiqdi. Keyin qo'limdan ushlab, sekin tashqariga chiqdi. «Fiat» tomida o'tirgancha oqarib kelayotgan osmonga qarab bir nechtadan sigaret chekdik. Negadir bosh rolda Richard Byorton o'ynagan tankchilar haqidagi film esimga tushdi. Kalamush nima haqida o'yladi, bilmayman.

— Ha-a-a... — dedi u besh daqiqalardan keyin. — Sen bilan ikkimizning omadimiz chopdi. Qara, bir joyimiz tirnalmadiyam. Shunaqayam bo'larkan, a?

— Gapirma, — dedim men. — Faqat mashina dabdala bo'ldi, shekilli?

— E, qo'ysang-chi. Mashinaning yangisini sotib olish mumkin. Omadni sotib ololmaysan! Unga hayron bo'lib qaradim.

— Sen nima, boymisan?

— O'xshaymanmi, a?

— Yaxshi-ku, bu...

Kalamush javob bermadi, faqat norozilanib boshini sermadi va gapini takrorladi:

— Lekin baribir omadimiz keldi.

— Bu gaping to'g'ri...

Kalamush sigaretni ezg'iladi-da, qoldig'ini barmog'ining boshi bilan maymunlar qafasiga chertib yubordi.

— Menga qara, — dedi u. — Ikkalamiz bir guruh tuzsak-chi? Qara, nimaga qo'l urmaylik — oxiri baxayr!

— Ishni nimadan boshlaymiz?

— Kel, pivoxo'rlik qilamiz.

Yaqinroqdagi avtomatdan olti bankacha pivo sotib oldik-da, dengiz bo'yiga qarab yurdik. Qirg'oqda cho'zilib, hammasini ichdik va dengizni tomosha qila boshladik. Havo juda zo'r edi.

— Meni «Kalamush» deb chaqir, — dedi u.

— Nega endi «Kalamush»? — hayron bo'ldim.

— Negaligini eslolmayman. Miyamga allaqachon o'rnashib qolgan. Boshida jinimdan yomon ko'rardim, hozir parvo qilmayman. Hamma narsaga ko'nikib ketarkansan.

Bo'sh idishlarni dengizga otdik va to'lqinqaytargichga yonboshladik-da, paltoni boshga yopib bir soatcha mizg'idik. Uyg'onib, badanimga allaqanday anglab bo'lmas hayotiy kuch quyilayotganini his etdim. G'aroyib hissiyot.

— Yuz kilometr yuguroleman, — dedim Kalamushga.

— Men ham, — dedi Kalamush.

Vaholanki, oldimizda bog'ning ta'miri uchun ketadigan pulni uch yil ichida bo'lib-bo'lib foizlari bilan qo'shib shahar ma'muriyatiga to'lash majburiyati turardi.

5

Kalamushga hayron qolardim, u hech narsa o'qimasdi. Sport gazetalari va reklama varaqalaridan boshqa biror-bir bosma matnni o'qiganini ko'rmadim. Vaqt o'tkazish uchun qo'limga kitob olsam, u qiziqsinib qaraydi — go'yo pashsha o'ldirgichni tekshirib ko'rayotgan pashshaning o'zginasi.

— Nega sen kitob o'qiysan?

— Nega sen pivo ichasan?

Tuzlangan baliq va sabzavotli salatdan gazak qildik. Savolga savol bilan javob qilarkanman, Kalamush tomonga qaramadim ham. U o'ylanib qoldi va besh daqiqalardan keyin dedi:

— Pivoning nimasi yaxshi? Hammasi siydik bilan chiqib ketadi, chiqitsiz. Xuddi birovdan quruq qilib yutib olganingday.

U shuni aytib, og'zimdagini chaynashimga qaradi.

— Nega sen kitob o'qiysan?

Baliqning oxirgi bo'lagini yutdim-da, ustidan pivo ichib, likopchani chetga surdim.

Yonimda «Tuyg'ular tarbiyasi»ning o'qib tugallanmagan jildi yotardi. Uni qo'limga olib, barmog'imni varaqlarining chetida yurgizdim.

— Flober allaqachon o'lib ketgani uchun!

— Tiriklarni o'qimaysanmi?

— Tiriklarni o'qigandan naf yo'q.

— Nega?

— Chunki o'lganlarning deyarli hamma ishini kechirsa bo'ladi.

O'girilib peshtaxtada turgan ko'chma televizorga qaradim — «66-yo'l»ni kuylashayotgandi. Kalamush yana o'ylanib qoldi.

— Tiriklarning-chi, nima, ularning ishlarini kechirib bo'lmaydimi?

— Tiriklarningmi? Negadir bu haqda jiddiyroq o'ylamabman... Lekin agar ular seni butkul chorasiz qoldirishsa, qanday qilib kechirasan? Kechirmasang kerak, axir...

Jey kelib, oldimizga yana bir shishadan pivo qo'ydi.

— Kechirmasang, unda nima qilasan?

— Boshimni yostiqqa burkayman-da, uxlayman.

Kalamush garangsib boshini chayqadi.

— Qiziq... Men negadir unchalik tushunmayapman...

Unga pivo quydim. Kalamush yelkasini qisdi va o'ylanib qoldi. Keyin gap boshladi:

— Oxirgi marta o'tgan yili yozda kitob o'qigandim. Nominiyam, muallifiniyam eslolmayman. Nega o'qiganimni ham eslolmayman. Qandaydir roman, biroq ayol kishi yozgan. Bosh qahramoni — u ham ayol, modeler, yoshi — o'ttizlarda. Qisqasi, u bedavo kasallikka chalinganman, deb o'zini ishontiradi.

— Qanaqa kasallik?

— Esimda yo'q. Saraton bo'lsa kerak. Yana qanaqa tuzalmaydiganlari bor? Xullas, u dengiz sayohatiga chiqadi va o'sha yoqda yo'l bo'yi o'zining shahvoniy nafsini qondirib ketadi. Vannaxonada, o'rmonda, to'shakda, dengizda — qisqasi, to'g'ri kelgan joyda.

— Dengizdayammi?

— Ha. Tasavvur qilasanmi? Shunaqa narsalarni yozishga ishqiboz ular. Yozadigan narsa qurib qolganday.

— Ha-a...

— Kechirasanu, kitoblar shunaqa. Ulardan ko'nglim ayniydi.

Men boshimni sermadim.

— O'sha ayolning o'rnida bo'lganimda umuman boshqacha roman yozardim.

— Masalan, qanaqa?

Kalamush stakan labida barmog'ini yurgizdi.

— Xo'sh, faraz qilaylik, bunday. Men kemaga o'tirib jo'nayman, kema esa Tinch okeanining o'rtasiga borib cho'kadi. Qutqaruv chambaragiga yopishib jon saqlayman va yolg'iz o'zim tungi okeanda qalqib, yulduzlarga termilaman. Ajoyib, sokin oqshom. Kutilmaganda qayerdandir yonimga yosh bir ayol suzib keladi, u ham qutqaruv chambaragida.

— Yaxshi ayolmi?

— Albatta.

Men pivodan ho'plab, bosh chayqadim.

— Jinnilik.

— Yo'q, sen davomini eshit. Demak, ayol ikkovimiz okeanda qal-qib, hayot to'g'risida gaplashamiz. Qayoqdan kelib, qayoqqa ketayapmiz, nimaga qiziqamiz, avval kim bilan yotganmiz, televizorda nimalarni tomosha qilganmiz, kecha qanday tushlar ko'rganmiz va hokazo. Keyin bo'lsa pivo ichamiz.

— To'xta... Pivo qayerdan keldi?

Kalamush o'ylanib qoldi.

— Pivoyam shu yerda — suvda qalqib turgandi. Bankalarda. Kemada oshxona bor edi, o'shandan to'kilgan. Yog'li sardinalar ham. Menimcha, yomon emas?

— Xo'sh?

— Shu payt atrof yorisha boshlaydi. Endi nima qilamiz? — so'raydi mendan ayol. Men, deydi, orol borligi aniqroq bo'lgan tarafga qarab suzmoqchiman. Men esa unga: balki hech qanaqa orol yo'qdir, deyman. Yaxshisi shu yerda — suv betida ichib turgan ma'qul, bir payt, qarabsanki, qutqaruvchi samolyot uchib kelib qoladi. Lekin u gapimga kirmaydi va yolg'iz o'zi suzib ketadi.

Kalamush xo'rsinib, pivodan ichdi.

— Ayol ikki kechayu ikki kunduzdan so'ng oroliga yetib oladi. Pivodan boshi og'rigan kaminani bo'lsa samolyot qutqaradi. Va uch-to'rt yil o'tib, biz u bilan shahar chetidagi kichkina mayxonada tasodifan uchrashib qolamiz.

— Keyin yana pivo ichasizlar, shundaymi?

— Qayg'uli voqea, to'g'rimi?

— Ha, bundan battari bo'lmaydi...

Kalamushning romanida men ikkita ijobiy jihatni ko'rsatgan bo'lardim. Birinchidan, unda seks sahnasi yo'q, ikkinchidan esa, hech kim o'lmadi. Odamlarni o'lishga yoki ayollar

bilan yotishga majbur qilishning hojati yo'q — shundog'am ular shu bilan mashg'ul. Zoti shunaqa.

* * *

— Meni nohaq deb o'ylaysanmi? — so'radi ayol.

Kalamush pivodan ho'pladi va ohista boshini chayqadi.

— Umuman olganda, hamma nohaq.

— Nega bunday deb o'ylaysan?

Kalamush «hm-hm»ladi va tili bilan ustki labini yaladi. Javob bo'lmadi.

— O'sha orolga suzib borgunimcha qo'llarim uzilib tushay dedi! O'lib qolaman, deb o'ylovdim — ahvolim juda yomon edi. Miyamni bir fikr tinimsiz parmalaydi: agar sen haq, men nohaq bo'lsam-chi? Nega men azob chekishim kerak, sen bo'lsa u yoqda parvoning palak, suvda qalqib yotibsan?

U kulib yubordi va qayg'uli alpozda yerga qaradi. Kalamush nochor va bemaqsad bir holatda cho'ntagini kovladi. Uch yil ichida birinchi marta uni tamaki xumori tutdi.

— Sen mening o'lishimni xohladingmi?

— Nima desam ekan... Biroz.

— «Biroz»ligi aniqmi?

— Eslolmayman...

Ikkalasiyam jimib qolishdi. Kalamushning nimadir degisi keldi.

— Bilasanmi nima? Odamlar bir xil bo'lib tug'ilmaydi.

— Kim aytdi?

— Jon F.Kennedi.

7

Bolaligimda haddan tashqari kamgap bo'lganman. Shu darajada indamas edimki, ota-onam tashvishlanib tanish ruhshunos tabibga olib borishdi.

Tabib tepalikda, dengizga qaragan uyda yashardi. Men quyosh tushib turgan qabulxonadagi kursiga o'tirdim. O'rta yoshlardagi uy bekasi nazokatli xulq-atvorini namoyish etib, muzdek apelsin sharbati bilan ikkita bo'g'irsoq keltirdi. Shakarini tizzamga to'kib yubormaslikka urinib, yarimta bo'g'irsoq yedim-da, sharbatning hammasini ichdim.

— Yana ichasanmi? — so'radi tabib.

Bosh chayqadim. Bir-birimizga qarab o'tirardik. Devordagi suratdan hurkak mushukka o'xshab ketadigan Motsart ta'na bilan boqardi.

— Qadim-qadim zamonlarda, — gap boshladi tabib, — xushfe'l bir echki bo'lgan ekan...

Boshlanishini qarang! Ko'zlarimni yumib, xushfe'l echkini tasavvur qilishga urindim.

— Echkining bo'yniga og'ir temir soatlar osilgan ekan. Qayerga borsa shularini osiltirib borarkan. Yursa hansirarkan. Buning ustiga, og'ir bo'lgani yetmagandek, soatlar ishlamas ham ekan. Bir kuni echkining oldiga tanish bir quyon kelibdi-da, shunday debdi: «Menga qara, echki! Nega sen bu buzuvchi soatlarni osib yuribsan? Axir, ular og'ir-ku, hech qanday foydasi ham yo'q». «Og'irlikka og'ir, — javob beribdi echki, — lekin soatlarga o'rganib qolganman-da. Rostdan ham og'ir, buning ustiga ishlamaydi».

Tabib apelsin sharbatini ichib tugatdi-da, menga jilmaydi. Indamay davomini kutdim.

— Va kunlardan bir kuni quyon echkining tug'ilgan kunida unga bog'ich bilan bog'langan kichkina quticha sovg'a qilibdi. Qutichada esa yap-yangi, yaltiroq, yengilgina va juda soz ishlaydigan soat bor ekan. Echki benihoya xursand bo'lib, uni bo'yniga osibdi-da, hammaga ko'rsatish uchun chopib ketibdi.

Kutilmaganda ertak tugadi.

— Sen — echkisan. Men — quyon. Soatlar sening ko'ngling.

Aldanganimni his qildim va itoatkorona bosh irg'adim.

Haftada bir marta, yakshanbaning ikkinchi yarmida, poyezddan tushib, avtobusga o'tirib, tabibning uyiga yetib olardim. U yerda esa qahvali o'rama, olmal pishiriqlar, shirin kulchalar, asalli nonlardan yeb davolanardim. Bir yil shunday muolajadan keyin menga

tish doktori zarur bo'ldi.

— Sivilizatsiya ma'lumot uzatish degani, — derdi tabibim. — Agar sen biror narsani ifodalab berolmasang, «biror narsa» yo'qday bo'lib qoladi. Borga o'xshaydi, aslida esa yo'q. Xo'sh, aytaylik, qorning ochdi. «Ovqat yegim kelyapti!» desang bo'ldi, men senga darrov kulcha beraman. Ol. (Oldim.) Agar hech narsa demasang, senga kulcha yo'q. (U yovuz qiyofada kulcha solingan likopchani stol ostiga yashirdi.) Nol! Tushundingmi? Sen buni so'zsiz ifodalashga harakat qilasan. Imo-ishora bilan. Urinib ko'r-chi.

Men qornimni changallab, yuzimda azoblanayotganimni aks ettirmoqchi bo'ldim. «Bu endi me'da kasali deyiladi!» — kulib yubordi tabib.

Me'da kasali...

Keyin biz u bilan Erkin Suhbat olib bordik.

— Qani, menga mushuklar haqida biror narsa gapirib ber-chi. Nima bo'lsayam mayli. Men o'ylayotgan ko'yi boshimni chayqadim.

— Xo'sh, miyangga dastlab nima keladi?

— To'rt oyoqli hayvon...

— Demak, fil!

— Undan ancha kichkina...

— Mayli, yana-chi?

— Odamlarning uyida yashaydi. Hushi toblaganda sichqon tutadi.

— Nima yeydi?

— Baliq.

— Dudlangan go'shtni-chi?

— Uniyam...

Xullas, mana shu tarzda.

Tabib to'g'ri aytgandi. Sivilizatsiya ma'lumot uzatish degani. Aytadigan va uzatiladigan hech narsa qolmaganda tsivilizatsiya tugaydi. «Shiq!» etadi-yu o'chadi.

Bahorda o'n to'rtga to'lganimda, g'alati hol yuz berdi. Men to'satdan gapira boshladim — go'yo to'g'on o'pirilib ketganday bo'ldi. Aynan nimalarni gapirganimni hozir eslolmayman, lekin o'n to'rt yillik jimlikning hissasini chiqarmoqchi bo'lganday uch oy to'xtovsiz vaysadim. Iyulning o'rtalariga kelib chakagim tinganida haroratim qirq darajaga ko'tarilib, uch kun maktabga bormadim. Keyin isitma tushdi. Men indamas ham, vaysaqi ham emas — shunchaki oddiy o'spiringa aylandim.

8

Men tonggi soat oltida uyg'ondim, aftidan, chanqagan bo'lsam kerak. Birovning uyida uyg'onganimga, doim o'zimni birovning tanasiga joylab qo'yilgan begona jonday his qilaman. Sabrim chidamay, ensiz karavotdan turdim, eshik oldidagi jo'mrak yoniga borib, uch-to'rt stakan suvni otday simirdim va yana yotdim.

Lang ochiq derazadan dengiz ko'zga tashlanardi. Hali ko'tarilmagan quyosh nurlari o'ynoqi to'lqinlarda yaltirardi. Bir necha og'irkarvon, chirkin yuk kemalari suzib yurardi. Kunning issiq bo'lishi tayin edi. Atrofdagi uylar uyquda — faqat g'ildiraklarning temir yo'lni yakkam-dukkam taqillatishi-yu, radiogimnastikaning sokin musiqasi quloqqa chalinardi. Kiyinmasdan, karavot suyanchig'iga suyandim-da, sigaret yoqib yonimdagi qizga qaradim. Uning badaniga janub tarafdagi derazadan quyosh nuri tushib turardi. U ustidagi yengil ko'rpani ochib tashlab, mast uyquda yotardi. Nafas olishi dam-badam tezlashar, chiroyli ko'kragi ko'tarilib-tushardi. Oftobdan qoraygan badani oqara boshlagan, cho'milganda kiyiladigan kiyimidan qolgan yaqqol izlar g'alati oqarib, ayniy boshlagan tanani eslatardi.

Men chekib bo'lib, o'n daqiqacha uning ismini eslashga urindim. Eslolmayman. Eng qizig'i, umuman uning ismini bilgan-bilmaganligimni eslay olmayotgandim. Zo'riqishni bas qilib, esnadim va yana unga qaradim. Yigirma yoshdan sal berida, semizdan ko'ra ozg'inga moyilroq. Qarichim bilan bo'yini o'Ichadim. Sakkiz qarich chiqdi va tovonigacha

yana bir bosh barmoq qoldi. Taxminan 158 santimetr.

O'ng ko'ragi ostida — o'n iyenlik tangaday keladigan, tomgan qayla tomchisiday xol bor. Manglaychasidagi siyrak tolalari — toshqindan keyingi daryo qiyosiga o'xshaydi. Va nihoyat, chap qo'lida — faqat to'rtta barmoq.

9

Uch soatlar o'tdi va u uyg'ondi. Qayerdaligini, nimalar bo'lganini anglay boshlashiga naq besh daqiqacha kerak bo'ldi. Bu besh daqiqada men qo'l qovushtirib, yomg'irli bulutlarning asta-sekin shakllarini o'zgartirgancha sharq tomonga o'rmalashini kuzatdim. O'girilib, uning bo'ynigacha ko'rpaga burkanib olganini ko'rdim, ichkilikning asoratlari bilan olisha turib, menga hayron bo'lib tikilayotgan edi.

— Sen... kimsan?

— Eslolmaysanmi?

U boshini chayqadi. Men sigaret tutatdim va unga ham uzatdim, biroq u e'tibor bermadi.

— Gapiyib bersang-chi?

— Qayeridan boshlay?

— Eng boshidan.

«Eng boshi» qayerdan boshlanishiga aqlim yetmas, gapni qanday so'zlar bilan boshlashni ham aniq tasavvur qilolmasdim. Qovusharmikan, qovushmasmikan?.. O'n soniyacha o'ylab, boshladim.

— Kun juda issiq, lekin yaxshi edi. Kunduzi hovuzda cho'mildim, keyin uyga qaytdim, sal mizg'ib olib, kechki ovqatni yedim. Soat to'qqizlar edi. Mashinaga o'tirib, aylangani ketdim. Qirg'oqqa yetib bordim, radioni qo'yib dengizga qarab o'tirdim. Men tez-tez shunday qilib turaman. Yarim soatlardan keyin kimnidir ko'rgim kelib qoldi. Dengizga uzoq qarasang, odamlarni ko'rging keladi, odamlarga uzoq qarasang — dengizni. G'alati. Qisqasi, «Jeyz-bar»ga borishga qaror qildim. Birinchidan, pivo xumor qilayotgandi, ikkinchidan esa, u yerda ko'pincha oshnamni uchratardim. Bu safar oshnam yo'q ekan. Pivoni yolg'iz o'zim ichishimga to'g'ri keldi. Bir soatda uch shisha ichdim.

Sigaretning kulini qoqish uchun gapni shu joyda to'xtatdim.

— Aytmoqchi, sen «Qizigan tomdagi mushuk»*ni o'qiganmisan?

U javob bermadi. Ko'rpaga o'rangancha — xuddi qirg'oqqa chiqarib tashlangan suv parisidek shiftga qaradi.

— Men shunchaki, bir o'zim ichsam doim shuni eslayman. Qanday edi?.. «Xuddi hozir miyamda bir nima «shiq» etadi-yu, hammasi joyi-ga tushadiganday, go'yo»... Aslida bunday bo'lmaydi. Hech narsa «shiq» etmaydi. Umuman, kutishdan charchadim va uning uyiga qo'ng'iroq qildim. Ichishga chaqirmoqchi edim. Ayol kishining ovozi javob qildi.

Hayron bo'ldim — bu umuman unga xos bo'lmagan holat. Uyiga hatto ellikta qizni olib kelib, ichib g'irt mast bo'lgandayam, telefonga o'zi kelardi. Tushunayapsanmi?

O'zimni adashib boshqa raqamni terganday ko'rsatib, uzr so'rab, trubkani ildim.

Kayfiyatim buzildi, sababini bilmayman ham. Yana bir shisha ichdim. Kayfiyatim esa yaxshilanmayapti. Ahmoqlik, albatta, lekin bo'lib turadi. Ichib tugatib, Jeyni chaqirayapman. Hozir haqini to'layman-da, uyga ketaman, borib beysbol natijalarini bilib olaman va yotib uxlayman, deb o'yladim. Jey menga, bor yuvin, dedi. U hatto bir yashik pivo ichsang ham, yuvinsang rulga o'tira olasan, deb ishonadi. Nachora — yuvinish xonasiga kirdim. To'g'risini aytsam, cho'milmoqchi emasdim — shunchaki, o'zimni yuvinish niyati borday qilib ko'rsatdim. Yuvinish xonasidagi toshning quvuri doim tiqilib, suv ketmay yotadi. Huzur qilib yuvinolmaysan, ko'ngling tortmaydi. Lekin negadir kecha quvurdan suv ketayotgan edi. Faqat endi boshqa bir tashvish ro'y bergan — yerda sen cho'zilib yotarding.

U «uh» tortib ko'zlarini yumdi.

— Keyin-chi?

— Men seni ko'tarib olib chiqdim, kimdir taniydimi, deb so'radim. Hech kim tanimadi. Keyin biz Jey bilan jarohatingni bog'ladik.

— Jarohatimni?

— Yiqilganingda bir nimaning qirrasiga boshing bilan urilgansan. Qattiqmas, qo'rqinchli joyi yo'q.

U bosh irg'adi, ko'rpaning tagidan qo'lini chiqarib, barmoqlarini peshonasidagi yaraga tekizdi.

— Jey ikkimiz seni nima qilishni maslahatlashdik. Oxiri shunday qarorga keldik: men seni uyga olib ketadigan bo'ldim. Sumkangga qo'l tiqib, hamyon, bir dasta kalit va xat topdik. Men hamyondagi puldan to'lab seni xat yozilgan manzilga olib bordim. Eshikni kaliting bilan ochib, seni to'shakka yotqizdim. Bor gap shu. Hisob varaqasi hamyonda.

U chuqur xo'rsindi.

— Sen nega qolding?

— ?

— Nega meni yotqizib darrov keta qolmading?

— Mening bir tanishim aroqdan qattiq zaharlanib o'lgan. Viski ichdi, hammaga «ko'rishguncha» dedi, tetikkina bo'lib uyiga ketdi. Borib tishini tozalab, pijamasini kiyganda, yotib uxlagan. Tongda esa badani sovub bo'lgan ekan. Dafn marosimini dabdabali qilib o'tkazishdi.

— Shuning uchun tun bo'yi yonimda o'tirib chiqdingmi?

— Umuman olganda, men soat to'rtlarda ketmoqchi edim. Lekin uxlab qoldim. Tongda uyg'ondim va yana ketmoqchi bo'ldim. Biroq ketmadim.

— Nega?

— Xo'-sh, o'ylab ko'rdim: voqea qanday bo'lganini senga aytib berish kerak-ku!

— Jinni bo'lib qolish mumkin, qanday oliyjanoblik!

Bu so'zlarga sidqidildan singdirilgan zahar menga sachramasin deb boshimni yelkalarim orasiga tortdim. Keyin esa bulutlarga qaray boshladim.

— Men kecha... biror narsa dedimmi?

— O'zgina.

— Nima haqida?

— Har xil narsalar haqida... Esimda yo'q. Jiddiy gap yo'q.

U ko'zlarini yumdi va tomoq qirdi.

— Xat-chi?

— Sumkada.

— Uni o'qidingmi?

— Shu yetmay turuvdi!

— Rostdan o'qimadingmi?

— E, o'qib nima qilaman?

Buni achchiq aralash aytdim: uning gapida nimadir menga qattiq botgandi. Lekin boshqa tomondan nimadir tinchlantirardi ham. Eski xotiralarni uyg'otardi. Agar tabiiyroq holatda tanishganimizda — ehtimol, vaqtni yomon o'tkazmagan bo'lardik. Menga shunday tuyuldi. Lekin, vijdonan aytganda, qizlar bilan tabiiy holatda qanday tanishish kerakligi allaqachon esimdan chiqib ketgandi.

— Hozir soat nechchi?

Biroz yengil tortib o'rnimdan turdim, stolda yotgan soatga qaradim, keyin stakanga suv quyib, qaytib keldim.

— To'qqiz.

U holsiz bosh irg'adi va stakanni bo'shatdi.

— Kecha ko'p ichdimmi?

— Yaxshigina. Agar men shuncha ichsam, o'laman.

— Men esa o'layapman.

U chekdi, og'zidan tutun chiqarib xo'rsindi — va qo'qqisdan gugurt cho'pini ochiq derazaga otdi.

— Kiyimni opkel.

— Qaysisini?

U ko'zlarini yumdi.

— Farqi yo'q. Faqat, xudo haqqi, savol berma.

Javonni ochib, narsalarni titdim, yengsiz havorang ko'ylakni tanlab, unga uzatdim. U ko'ylakni boshidan tushirib yalang'och taniga kiydi, yelkasidagi bog'ichni o'zi qadadi va yana bir marta xo'rsindi.

— Ketishim kerak.

— Qayoqqa?

— Ishga-da...

Buni u tupurganday qilib aytdi. Keyin, gandaraklab o'rnidan turdi. Men hamon karavotning bir chetida, uning qanday yuvinib-taranayotganiga qarab o'tirardim.

Xona tartibga keltirilgan, lekin faqat qo'l uchida: bunday sarishtalik ortidan, odatda, beparvolikning hidi anqib turadi — bu yerda ayni shu hid havoni to'ldirar va mening asablarimni ezg'ilardi. Olti tatamicha* keladigan maydonni bir xil arzon uy jihozlari band etgan. Qolgan bo'sh joy bitta ko'rpacha tashlashga yetgulik edi — u aynan o'sha yerda tik turib, sochini tarardi.

— Qanaqa ish?

— Senga daxli yo'q.

Umuman olganda, albatta...

Indamay sigaretni chekib tugatayotgandim. U menga orqa o'girgancha, oynaga qarab, barmoqlarining uchi bilan ko'zlarining tagidagi soyani silardi.

— Soat nechchi? — so'radi u yana.

— O'n minut o'tdi.

— Kech qolayapman. Sen ham kiyinib, uyingga bor, — u qo'ltig'iga atir purkadi. — Uying bordir?

— Bor, — to'ng'illadim men va maykamni tortib kiydim. Hanuz karavotda o'tirgancha, derazaga qaradim. — Sen qayoqqa borishing kerak?

— Bandargoh tomonga. Nimaydi?

— Men seni tashlab o'taman. Kechikmasliging uchun.

U cho'tkani qo'ldan qo'ymay, yig'lagudek bo'lib menga tikildi. Agar yig'lab olsa, albatta, yengil tortadi, deb o'yladim. Lekin u yig'lamadi.

— Menga qara, gapimni eshit, — dedi u. — To'g'ri, men ko'p ichib qo'yib mast bo'lganman. Ya'ni qanday bo'lmag'ur ahvolga tushmayin, o'zim uchun o'zim javob beraman.

U jiddiy qiyofada cho'tkaning dastasi bilan kaftiga urdi. Yana nima derkan, deb kutdim.

— Shundaymi, shunday emasmi?

— Ha, shunday...

— Lekin qiz bilan, u hushini yo'qotgan vaqtda yotish — pastkashlik!

— Men, axir, hech narsa qilganim yo'q-ku...

U biroz jim turdi, o'zini bosib olayotgani aniq edi.

— Yaxshi, unda nega men yalang'och edim?

— O'zing yechinding.

— Ishonmayman!

U cho'tkani karavotga tashladi va sumkachasiga hamyon, lab bo'yoq, bosh og'rig'idan dori va boshqa mayda-chuydalarni tiqa boshladi.

— Mana, sen, hech narsa qilmaganman, deyapsan. Isbotlay olasanmi?

— Balki o'zing ilojini qilib tekshirib ko'rarsan?

— Qanday qilib?

Uning rostdan ham jahli chiqayotganga o'xshardi.

— Men senga qasam ichaman.

— Ishonmayman!

— Ishonishga to'g'ri keladi, — dedim. Va o'zimni noxush his qildim.

U joniga tekkan gap-so'zni to'xtatib, meni tashqariga turtib chiqardi, izimdan chiqib eshikni qulfladi.

Daryo yoqalab ketgan asfalt yo'ldan yurib indamay mashinam turgan tashlandiq joygacha bordik. Men sochiq bilan old tomondagi shishani artayotganimda u atrofni bir

aylanib chiqdi va mashina kapotiga oq bo'yoqda katta qilib nari-beri chizib tashlangan sigirning tumshug'iga shubhalanib tikilib qoldi. Sigirning burnida katta uzuk bor edi, tishlarida esa oq atirgulni tishlab qo'pol ishshayib turardi.

— Buni sen chizdingmi?

— Yo'q, bu mengacha bor edi.

— Nega endi aynan sigir?

— Rostdan ham, qiziq, — dedim men.

U ikki qadam orqaga tisarildi va yana bir marta sigirning tumshug'iga qaradi. Keyin go'yo kutilmaganda gapga kirishib ketganidan afsuslanganday labini qimtdi va mashinaga o'tirdi.

Ichkari issiq edi. Bandargohga yetgunimizcha u og'iz ochmadi, sochiq bilan terini artirdi va to'xtovsiz chekdi. U ketma-ket tutunni ichiga tortar, lab bo'yog'ining izi qolgan-qolmaganini tekshirayotganday sigaretning filtriga diqqat bilan qarar, keyin esa sigaret qoldig'ini kuldonga tiqib, yangisini olardi.

— Menga qara, men yana kechagi voqea haqida. O'shanda nima dedim o'zi? — kutilmaganda so'radi u mashinadan chiqishga shaylanarkan.

— Har xil gaplar...

— Birortasini bo'lsayam eslagin.

— Kennedi haqida.

— Kennedi?

— Jon F.Kennedi haqida.

U boshini chayqab, uf tortdi.

— Hech narsani eslolmayman.

Mashinadan chiqayotib, u orqa tarafni ko'rsatadigan oynaga indamay ming iyenlik pulni suqib ketdi.

10

Dahshatli jazirama edi. Qizigan havoda tuxum pishirsa bo'lardi.

Odatinga ko'ra, butun gavdamni tashlab «Jeyz-bar»ning zil-zambil eshigini ochdim va konditsioner havosidan yutdim. Tamaki tutuni, viski, qovurilgan kartoshka, qo'ltiqlar va kanalizatsiyaning o'tirib qolgan hidlari xuddi olmon o'ramasining qatlamlariga o'xshab batartib qalashib ketgandi.

Odatdagiday, peshtaxtaning bir chetdagi burchagiga o'tirdim, devorga engashdim va odamlarga ko'z yugurtirdim. Ko'zga g'alati ko'rinadigan kiyim-kechakda uch nafar frantsuz dengizchisi, ular bilan ikkita ayol va bir juft yosh-yalang bor, xolos. Kalamush yo'q edi.

Pivoga qo'shib go'shtli sendvich va makkabodroq buyurdim. Keyin Kalamush kelguncha vaqt o'tkazish uchun kitobni qo'lga oldim.

O'n daqiqalardan so'ng bema'ni yaltiroq libosda o'ttiz yoshlardagi ayol kirib keldi. Uning dum-dumaloq ko'kraklari ikkita tsitrus mevasini eslatardi. U mendan bir kursi nariga o'tirdi, xonaga xuddi shu tarzda ko'z yugurtirdi va o'ziga gimlet* buyurdi. Bir qultum ichib, o'rnidan turdi va kishini esdan og'diradigan darajada uzundan-uzoq telefonda gaplashdi. Keyin sumkasini yelkasiga silkib tashlab olib, hojatxonaga qarab ketdi. Qirq daqiqa ichida bu uch marta takrorlandi. Bir qultum «gimlet», uzundan-uzoq telefonbozlik, sumkacha, hojatxona.

Ro'paramda Jey paydo bo'ldi.

— Hali ketingni yag'ir qilmadingmi? — achitib so'radi u. Garchi xitoylik bo'lsayam, biroq yaponchada mendan ancha yaxshiroq gapiradi.

Hojatxonadan uchinchi marta qaytayotib, ayol atrofiga alangladi, yonidagi kursiga sirg'alib o'tirdi va past ovozda so'radi:

— Kechirasiz, sizda mayda topilmaydimi?

Men boshimni irg'adim, cho'ntagimdagi bor chaqani olib, peshtaxtaga to'kdim. O'ttizta o'n iyenlik tanga.

— Rahmat. Katta yordam berdingiz. Barmenning joniga tegib ham ketdim — almashtirib ber, almashtirib ber...

— Sizga rahmat, endi bu yukni ko'tarib yurmayman.

U minnatdor qiyofada jilmayib, epchillik bilan chaqalarni yig'ib oldi-da, qo'ng'iroq qilish uchun yugurdi.

Kitobni yopdim. Jeydan televizorni peshtaxtaga qo'yishni so'radim va pivo ichib, to'g'ridan-to'g'ri olib ko'rsatilayotgan beysbol o'yinini ko'ra boshladim. O'yin jiddiy edi. Birgina to'rtinchi setning o'zida ikkita pitcherning oltita uzatgan to'pini qaytarishdi, buning ustiga ikkita xit bittadan ochko keltirdi. Maydondagi o'yinchilardan biri, sharmandalikka chiday olmay, maysaga yotib qoldi. Pitcherlarni almashtirishayotganda reklama ulavorishdi. Ketma-ket oltita rolik ketdi — pivo, sug'urta, vitaminlar, aviakompaniya, kartoshkali chipslar va gigiyena sochiqlari.

Xonimlar yoqtirmagan frantsuz dengizchi qo'lida pivo quyilgan stakan bilan kelib orqamda to'xtadi va frantsuzchalab nima ko'rayotganimni so'radi.

— Beysbol, — inglizchada javob qildim.

— Beysbol?

Ikki og'iz qilib unga o'yin qoidalarini tushuntirdim. Mana bu erkak koptokchani otadi, bunisi uni tayoq bilan uradi; yugurib bir aylanib chiqsang — ochko olasan. Dengizchi besh daqiqacha televizorga baqrayib qarab turdi, reklama boshlanganda esa musiqali avtomatda nega Jonni Xolideyning plastinkasi yo'q, deb so'radi.

— Mashhur emas, — dedim men.

— Frantsuz qo'shiqchilaridan kim mashhur?

— Adamo.

— U belgiyalik.

— Unda Mishel Polnareff.

— Merde.

Dengizchi o'zining stoliga ketdi.

Beshinchi set boshlandi va ayol qaytib keldi.

— Rahmat. Kel, men seni biror narsa bilan mehmon qilay.

— E, nega, keragi yo'q...

— Qarzimni qaytarmaguncha tinchimayman — fe'lim shunaqa.

Xushmuomala tabassumni eplolmadim — shunchaki bosh irg'ab qo'ya qoldim. U Jeyni imlab chaqirdi: «Unga pivo, menga gimlet». Jey uch marta ma'noli bosh silkidi va peshtaxta ortiga g'oyib bo'ldi.

— Nima, kelmayaptimi?

— Ha, negadir...

— Ayol kishimi?

— Erkak.

— Meniki ham kelmayapti. O'xshaydi-a?

Ilojsizlikdan bosh irg'adim.

— Quloq sol, men nechchiga kirganga o'xshayman?

— Yigirma sakkiz.

— Aldayapsan.

— Yigirma olti.

U kulib yubordi.

— Menga farqi yo'q. Seningcha qanday — erga tekkanmanmi, yo'qmi?

— Agar topsam, menga nima tegadi?

— O'shanda ko'ramiz.

— Erga tekkansan.

— Ha-a-a... Yarmini topding. O'tgan oy ajrashdim. Sen biror marta ajrashgan ayol bilan uchrashganmisan?

— Yo'q. Lekin men nevrallyaga duchor bo'lgan sigir bilan uchrashganman.

— Qayerda?

— Universitet laboratoriyasida. Biz besh kishi bo'lib uni auditoriyaga itargilab kiritganmiz.

U xoxolab kuldi.

— Sen talabamisan?

— Ha.

— Qachonlardir men ham talaba bo'lganman. Oltmishinchi yillarda. Yaxshi vaqtlar edi...

— Qayerda?

U javob bermay qiqirlab kuldi-da, gimletdan ho'pladi va aniq nimanidir eslab, soatga qaradi.

— Yana qo'ng'iroq qilish kerak. — U sumkachasini olib o'rnidan turdi.

Mening savolim havoda qoldi. Pivoning yarmini ichib, Jeyni chaqirdim va xarajatni to'ladim.

— Qochishga qaror qildingmi? — dedi u.

— Ha.

— O'zingdan yoshi katta ayollarni yoqtirmaysanmi?

— Yoshning aloqasi yo'q. Ha, agar Kalamush paydo bo'lib qolsa, salom ayt.

Men bardan chiqayotganimda, ayol telefondagi gapini tugatib, to'rtinchi marta hojatxonaga borayotgandi.

Uyga qaytayotib yo'l bo'yi qayerdandir eshitgan musiqani hushtakda chaldim. Nomi hech ham esimga tushmasdi. Juda eski narsa. Mashina qirg'oqda turardi va tungi dengizga termilib, baribir nomini eslashga urinib ko'rdim.

«Mikk-Maus klubining qo'shig'i» edi bu. Shunday so'zlar bor edi:

Mana, qandayin quvnoq,

O'ronimiz bor bizning.

Em-ay-si-

key-i-uay-

em-ou-yu-es-i!

Balki, chindanam yaxshi vaqtlar bo'lgandir.

11

yoql

Salom! Hammangizga xayrli oqshom nasib etsin! Kayfiyatlar qalay? Mening kayfiyatim chog'. Shunaqangi zo'r kayfiyatdamanki, yarmisini sizga ulashsam deyman. «En-I-Bi» radiosi gapiradi. "Talablarga binoan ommabop musiqa" dasturi! Bugun shanba va biz yana oqshom soat to'qqizgacha roppa-rosa ikki soat siz bilan birgamiz! Siz bir dunyo xilma-xil musiqalarni tinglaysiz. G'amgin qo'shiqlar, o'tmishni eslatuvchi va quvnoq ashulalar sizga hamroh bo'ladi. Eshitganda odamning raqs tushgisi keladigan, hatto eshitganda tupurgisi va qusgisi keladigan qo'shiqlarni ham tinglaysiz. Xullas, turli-tuman qo'shiqlar! Bizga qo'ng'iroq qiling. Raqamimizni bilasiz. Faqat raqamlarda chalkashmang. O'ng'aysiz ahvolga tushib yurmang. Yoki allaqanday falokatga duchor bo'lmang. Eh, qovushmayapti... Darvoqe, biz bu yerda bir soatdan beri talablaringizni qabul qilayapmiz. O'nta telefon tinimsiz jiringlaydi va dam olishga bir daqiqa ham fursat yo'q. Ularning qanday jiringlayotganini eshitishni xohlaysizmi?..... Eshitdingizmi? Dahshat-a, to'g'rimi? Xullas, barmoqlaringiz qavarib ketguncha tinimsiz bizga qo'ng'iroq qilavering. Aytgancha, o'tgan hafta chunonam qo'ng'iroq qildingizki, bu yerda bizdagi tiqinlarning barisi otilib ketdi. Lekin hozir hammasi joyida. Biz kecha maxsus sim arqon yotqizdik. Sim arqon emas, naqd filning oyog'i. Avvalgisi sim emas, shunchaki kosov edi. Yana qovushmadi... Qisqasi, aqldan ozguningizcha bemalol qo'ng'iroq qilavering. Hatto studiyada hamma aqlidan ozgan taqdirdayam baribir tiqinlar otilmaydi. Kelishdikmi? Bugun ko'chada yana haqiqiy jazirama — keling uni rok shovqiniga bostiramiz! Bu musiqa shuning uchun yaratilgan. Xuddi bizning ofatijon qizlarimizday. O'key, birinchi ashula! Buni jimgina eshiting, zo'r qo'shiq. Jaziramani unutamiz! Xullas, Bruk Benton, «Jorjiyada yomg'irli tun»!

o'chr

..... Uf-f-f..... Jazirama!..... Dahshat!

.....Salqinroq qilishning hech iloji bormikan?.....

.....Yo'q, bu do'zaxning o'zginasi..... Ey, bas qil, shundoq ham terga botganman.....

.....Yaxshi-yaxshi, bunisi mazza.

..... Menga qara, bir nima ichgim kelyapti! Kim bo'lsa ham muzdek kola beringlar.

.....Nima! Hojatxonaga borib kelishga ulgurmaymanmi? Sen mening qovug'imni bilmaysan! Meniki hammaning qovug'idan pesh.....

.....Rahmat, Mi-tyan, sen balosan..... Muzdaygina!...

.....Ochqichni keltirmadingmi?.....

.....Ahmoq! Nima, men tishim bilan ochamanmi? Voy, hozir qo'shiq tugaydi, ulgurmayman! Ahmoqona hazillaringi bas qil!..... OChQlCh!!!

.....Jin ursin!.....

yoql

Ajoyib qo'shiq, shunday emasmi? Haqiqiy musiqa! Bruk Benton, «Yomg'irli Jorjiya».

Meningcha, hatto biroz salqin bo'ldi. Darvoqe, nima deb o'ylaysiz, bugun harorat qanday? O'ttiz yetti daraja! O'ttiz yetti... Hatto yozda ham bunchalik bo'lmaydi.

Pechkaning o'zi! Qiz bola bilan quchoqlashganingda ham salqinroq bo'ladi — bunday o'ttiz yetti darajada yolg'iz o'tirgandan ko'ra. Shu gapga ishonasizmi? O key, gap sotishni bas qilaylik! Keyingisini qo'yamiz. «Krideks Klieuoter Rivayvl» «Yomg'irni kim to'xtatadi?» qo'shig'i bilan. Ketdik, beybi!

o'chr

.....Ey, endi keragi yo'q. Mikrofonning tirgovchi bilan ochdim.....

....O-o-o-o.....Kayf!..... Qo'rqma. Hiqichoq tutmaydi.Xavotirlanma.....

.....U yoqda beysbol nima bo'layapti?Aytmoqchi, uni boshqa kanaldan uzatishlari kerak.....

.....To'xta, bu nimasi? Radiostudiyada bittayam priyomnik yo'qmi? Bunaqa ishlar uchun qamoqqa tashlash kerak!.....

.....Tushundim. Bo'ldi. Qisqasi, keyingisi pivo bo'ladi. Faqat yanayam muzdayroq.....

..... Voy, boshlanyapti shekilli. Hozir hiqichoq tutadi..... Hiq!.....

12

Sakkizdan chorakta o'tganda telefon qo'ng'irog'i jiringladi.

Bu paytda men to'qima kursida yalpayib o'tirgancha pishloqli krekerne qisirlatib chaynab ustidan pivo ichayotgandim.

— Hoy, salom. «En-I-Bi» radiosi gapirayapti, «Talablarga binoan ommabop musiqa» eshittirishi. Hozir bizlarni eshitayotganmiding?

Shoshilib bir qultum pivo bilan og'zimga yopishib qolgan krekerne yuvdim.

— Radio?

— Ha, radio. Sivilizatsiya samarasi..... Hiq! Texnik tafakkurning cho'qqisi.

Muzlatgichdan kichik, televizordan arzon va changyutgichdan mustahkamroq. Hozir nima qilayotganding?

— Kitob o'qiyotgandim...

— Xi-xi-xi!.. Zo'r mashg'ulot topibsan... Radio eshitish kerak! O'qiyotganingda butunlay yolg'iz qolasan. To'g'rimi?

— Ha...

— Mana, aytaylik, spagettining qaynashini kutayapsan, bu vaqtda o'qish mumkin. Tushundingmi?

— A-ha....

— Ha, mayli..... Hiq!..... Bu masalani tugatdik. Endi ayt: sen biror marta hiqichog'ini yengolmayotgan boshlovchini eshitganmisan?

— Yo'q.

— Demak, birinchi marta eshitayapsan. Umuman, xuddi hozir radiopriyomniklar oldida o'tirganlarga o'xshab. Darvoqe, nimaga senga efirdan to'g'ridan-to'g'ri qo'ng'iroq qilayotganimni tushunayapsanmi o'zi?

— Yo'q.

— Gap bunday... Bitta qizdan talabnoma tushdi..... hiq!..... sen uchun qo'shiq eshittirishimizni so'rab. Kimligini bilasanmi?

— Yo'q.

— Qo'shiq «Kaliforniya qizlari» deb nomlanadi. «Bich Boyz» ijro etadi. Eski qo'shiq. Xo'sh, endi tushundingmi?

Men biroz o'yladim va bilmayman dedim.

— Him-m-m..... Qiyin-a? Agar topsang, senga zo'r futbolka yuboramiz. Esla! Men yana chiranib o'yladim. Bu safar xotiramning uzoq puchmoqlaridan nimanidir ilintirishga erishdim.

— Xo'sh?... «Kaliforniya qizlari», «Bich Boyz». Nima esingga tushayapti?

— Besh yillar burun sinfdosh qizdan shunaqa plastinka olgandim.

— Sinfdoshing kim bo'ldi?

— O'quv sayohatiga chiqqandik, ko'zshishasini tushirib qo'ygandi. Men topishga yordamlashdim — minnatdorchilik uchun o'sha qiz plastinkasini eshitishga berdi.

— Xo'sh.... Ko'zshishasi.... Ha, aytgancha, plastinkani unga qaytargandirsan?

— Yo'q, yo'qotib qo'ydim....

— E-e, shuyam ish bo'пти-yu! Xuddi shunaqasini sotib olib ber. Qizlarga biror narsa berish boshqa narsa..... Hiq!..... Olish boshqa narsa! Tushundingmi?

— Ha.

— Yaxshi. Besh yil burun o'quv sayohatida ko'zshishasini tushirib qo'ygan qiz! Albatta, siz hozir bizni eshityapsiz! Ha, uning ismi nimaydi?

Ismini aytdim.

— Xo'sh. U xuddi shunday plastinka sotib olib sizga beraman, deyapti. Juda zo'r, to'g'rimi? Aytmoqchi, necha yoshdasan?

— Yigirma birda.

— Ajoyib davr! Talabamisan?

— Ha.

— Hiq!..

— Nima?

— Mutaxassisliging nima deyapman!

— Biologiya.

— O-o-o.... Jonivorlarni yaxshi ko'rasanmi?

— Yaxshi ko'raman.

— Nimasini yaxshi ko'rasan?

— Xo'sh, ehtimol, ular kulmaydi, shuning uchundir.

— Ana, xolos!.. Hayvonlar kulmaydimi?

— It va otlar sal-pal kuladi.

— Xo-xo... Qachon kuladi?

— Xursand bo'lganida.

Ko'p yillardan beri birinchi marta jahlim chiqa boshladi.

— Bundan chiqdi..... hiq!..... itdan qiziqchi chiqarkan-da?

— Sizdan chiqishi aniq.

— Xa-xa-xa-xa!.....

13

«Kaliforniya qizlari»

Sharqiy qirg'oq tomonda
Po'rim qizlar juda ko'p.
Janubdagilar esa bir urishda yiqitar!
Yurishlari kinodagiday...

O'rta G'arb ham yomonmas,
Fermalarda go'zallar serob,
Shimollik qizlar esa — o'pishishga ustadir,
Ular bilan hech sovg'otmaysan.

Biroq Kaliforniya qizlari oldida ularga yo'l bo'lsin!...

14

Futbolka uch kundan keyin pochta orqali keldi.
Mana bunaqa:

15

Ertasi kuni ertalab yangi sarponi kiydim, u badanimga yoqimli sanchilardi, va bandargoh atrofida tentiragani ketdim. Yo'limda gramplastinkalar sotiladigan kichkina do'koncha uchradi, ichkariga kirdim. Do'konda zog' ham yo'q edi — faqat sotuvchi qiz peshtaxta ortida bankadan kola ho'plab zerikkan qiyofada cheklarni tekshirayotir. Plastinka terilgan tokchalarga qaradim va qo'qqisdan qiz bilan tanishligimni payqab qoldim. Xuddi o'sha, jimjilog'i yo'q qiz — bir hafta oldin u Jeyning baridagi yuvinish xonasida yiqilgan edi. — Salom! — dedim. U esankiragancha menga, keyin ko'ylagimga qaradi va kolaning qolganini ichib tugatdi.

— Bu yerda ishlashimni qanday bilding?

— Bu shunchaki tasodif. Plastinka sotib olishga kiruvdim.

— Qanaqa?

— «Bich Boyz». «Kaliforniya qizlari»ni.

U menga shubhali qaragancha o'rnidan turdi, tokcha tarafga uch qadam tashladi va yaxshilab o'rgatilgan kuchukday, plastinka bilan qaytdi.

— Mana bu bo'ladimi?

Boshimni irg'adim-da qo'limni cho'ntagimdan chiqarmay do'konni ko'zdan kechirdim.

— Yana Betxoveni. Uchinchi fortepiano kontserti.

U ikkita plastinka keltirdi.

— Kimning ijrosida, Glen Guldningmi yoki Bakxauzningmi?

— Glen Guldning.

U plastinkani peshtaxtaga qo'ydi va boshqasini qaytarib olib ketdi.

— Yana nima?

— Maylz Devisniki. «Chit ko'ylakli qiz» bor plastinkasi.

Bu safar u uzoqroq qidirdi — lekin yana topdi.

— Yana nima?

— Bo'ldi, shekilli. Rahmat.

U peshtaxtaga uchta plastinkani terdi.

— Bularning hammasini eshitasanmi?

— Yo'q, bular sovg'a uchun.

— Fe'ling keng ekan.

— Shunday tuyuladi...

U o'ng'aysizlanganday yelkasini uchirdi va narxini aytdi, 555 iyen. Pulni to'lab, plastinka solingan xaltani qo'lga oldim.

—Buni qara-ya... Sen bahona bugun tushgacha uchta plastinka sotdim.

— Ajoyib.
 U “uh” tortdi, peshtaxta ortiga o‘tirib, cheklarning boshqa bir dastasini qo‘liga oldi.
 — Sen bu yerda doim bir o‘zing o‘tirasanmi?
 — Yana bitta qiz bor. Hozir tushlikda.
 — Sen-chi?
 — U qaytsa meni almashtiradi.
 Cho‘ntagimdan sigaret chiqarib tutatdim va chekib uning ishini kuzatdim.
 — Menga qara, balki birga tushlik qilarmiz?
 U cheklardan ko‘zini uzib, bosh chayqadi:
 — Bir o‘zim tushlik qilishni yaxshi ko‘raman.
 — Men ham.
 — Sen hammi?
 U qovog‘ini uydi, cheklarni nariroq surib grammofonga «Xarperz Bizarr»ning oxirgi plastinkasini qo‘ydi.
 — Nimaga endi sen meni taklif qilib qolding?
 — Har zamonda an‘anani buzib turish kerak.
 — O‘zing buzaver. Menga tirg‘alning yetar.
 U bir dasta chekni yoniga surdi va yana ishga kirishdi.
 Men bosh irg‘adim.
 — Senga aytuvdim shekilli — sen yaramassan, — dedi u. Keyin labini qisdi va to‘rt barmog‘ini bir dasta chekning girdidan shitirlatgancha yurgizdi.

16

«Jeyz bar»ga kirganimda Kalamush peshtaxtaga tirsagini tirab, xo‘mraygan alpozda Genri Jeymsning qalinligi telefon kitobiday romanini o‘qiyotgandi.
 — Qiziqmi?
 Kalamush kitobdan ko‘zini uzdi va bosh chayqadi.
 — Unchamas. Garchi men hozir faqat o‘qishga berilganday ko‘rinsam-da. O‘sha suhbatdan keyin. «Nochor haqiqatdan ko‘ra men chiroyli yolg‘onni afzal ko‘raman». Shunaqasini eshitganmisan?
 — Yo‘q.
 — Roje Vadim. Frantsiyalik kinorejissyor. Mana yana: «Rivojlangan intellekt qarama-qarshi tushunchalarni bir paytda o‘ziga qamrab oladigan faoliyatdan iborat».
 — Bunisi kimniki?
 — Esimda yo‘q. Lekin haqiqatga o‘xshaydi, a?
 — O‘xshamaydi.
 — Nega?
 — Xo‘p, mana aytaylik, oqshom soat uchda och-nochor uyg‘onasan-da, muzlatgichni titkilaysan — hech vaqo yo‘q. Shunda rivojlangan intellekting bilan nima ham qila olarding?
 Kalamush biroz o‘ylanib turdi va xoxolab kulib yubordi. Men Jeyni chaqirib, pivo bilan qovurilgan kartoshka buyurdim. Keyin plastinka solingan xaltani olib, Kalamushga topshirdim.
 — Bu nima?
 — Tug‘ilgan kunga sovg‘a.
 — Meniki bir oydan keyin.
 — Bir oydan keyin men bo‘lmayman.
 Xaltani qo‘lida ushlab, Kalamush o‘ylanib qoldi.
 — Yo‘g‘-e... Esizgina, o‘rning bilinadi. — U paketni ochdi va bir muddat plastinkaga qarab qoldi.
 — Betxoven. Orkestr bilan ijro etiladigan fortepiano uchun uchinchi kontsert. Glen Guld, Leonard Bernstayn. Hm-m-m... Men buni eshitmaganman. Sen-chi?

— Men ham.

— Xo'p, rahmat... Umuman aytganda, men juda xursandman.

17

Uni uch kun qidirdim. Menga «Bich Boyz» plastinkasini bergan qizaloqni.

Maktab ma'muriyatiga uchrab, bitiruvchilar ro'yxatini so'radim va uning telefon raqamini topdim. Lekin tushib bo'lmadi — avtomat bunday raqam endi haqiqiy emas, deb javob qildi. Ma'lumot byurosiga qo'ng'iroq qildim — aloqachi qiz besh daqiqacha uning ismini qidirdi, keyin bunaqa ism kitoblarda yo'q ekanini aytdi. «Bunaqa ism» — bu menga yoqdi. Minnatdorchilik bildirib, trubkani ildim.

Ertasi kuni sobiq sinfdoshlariga sim qoqib, u haqida biror narsa bilasizlarmi, deb surishtirdim. Hech kim hech narsa bilmadi, ko'pchiligi esa umuman bunday qiz bo'lganini eslay olishmadi ham. Ularning oxirgisi men bilan gaplashish istagi yo'qligini aytdi va trubkani ilib qo'yaqoldi. Nega bunday qilganiga hatto aqlim yetmaydi.

Uchinchi kun men yana maktabga bordim va bitiruvdan keyin uning qayerga o'qishga kirganini surishtirib bildim. Chet joydagi bir xarobgina ayollar oliy o'quv yurtining ingliz tili bo'limiga kirgan ekan. O'sha yoqqa qo'ng'iroq qilib, o'zimni «Makkormik» salat ziravorini sotish bo'yicha vakil deb tanishtirdim: anketa so'rovi uchun menga shu qiz kerak edi, uning manzili bilan telefonini aytib yuborolmaysizmi? Kechirasiz, albatta, lekin bu ish juda muhim, dedim. Qidirib ko'ramiz, — deyishdi menga, — o'n besh daqiqalardan keyin qayta qo'ng'iroq qiling. Bir banka pivo ichdim va qayta qo'ng'iroq qildim. Shu yilning martida talabalar safidan chiqarishni so'rab ariza berganini menga ma'lum qilishdi. Kasalligi tufayli. Qanaqa kasallik? — U allaqachon tuzalgandir? — Salat yeya oladimi? — Butunlay ketdi, akademik ta'tilgamasmi? — bu savollarning hammasiga men javob ololmadim.

— Menga eski manzili ham bo'laveradi, — dedim. — Balki qidirib ko'rarsiz?

Eski manzilini topishdi — o'quv yurti yaqinidagi pansion. O'sha yoqqa qo'ng'iroq qildim. Ovoziga qaraganda, komendant javob qildi. Yozda jo'nab ketgan, qayoqqa — bilmayman, — to'ng'illadi u va trubkani tashlab qo'ydi. «Bilishni ham xohlamayman», demoqchi bo'lgani aniq.

Uni topish umididagi eng so'nggi rishta shunday uzildi.

Uyga qaytdim, pivo bankasini ochib, «Kaliforniya qizlari»ni eshita boshladim.

18

Telefon jiringlab qoldi.

Oromkursida qo'limda ochiq kitob bilan mudrab o'tirgandim. Hozirgina qisqa jala yog'ib o'tdi — bog'dagi daraxtlar ivib ketdi. Yomg'irdan keyin quruq, dengiz hidi anqigan shamol esdi. Ayvonda tuvakchadagi o'simliklarning barglari titradi, ularning ketidan parda titradi.

— Allo, — ayol ovozi eshitildi. Xuddi birov mo'rtgina stakanni qiyshayib turgan stolga avaylab qo'yganday. — Meni eslaysanmi?

O'zimni biroz o'ylangan ko'yga soldim.

— Plastinkalar qanday? Sotilyaptimi?

— E, unchalikmas... Kasod... Hech kim plastinka eshitmayapti.

— Ha.

U tirnoqlari bilan trubkani chertdi.

— Telefoningni topgunimcha jinni bo'lib qolishimga sal qoldi.

— Yo'g'-e?..

— «Jeyz-bar»dan so'radim. Barmen sening do'stingdan so'radi. Baland bo'yli, sal g'alatiroq. Molerni o'qiyotgandi.

— Tushunarli.

Jimlik.

— Seni hamma qayoqqa yo'qoldi, deb so'rayotgandi. Bir haftadan beri kelmayapsan, ular: kasal bo'lib qolgandir, deb o'ylashayapti.

— Meni shunchalik yaxshi ko'rishlarini bilmasdim...

— Sen mendan xafamisan?

— Nega?

— Senga bo'lmag'ur gaplarni aytib yubordim. Kechirim so'ramoqchiydim.

— Men uchun qayg'urma. Biroq, agar bu seni shunchalik bezovta qilayotgan bo'lsa, unda kel, bog'da kaparlarga birga ovqat beraylik?

U xo'rsindi, sigaret yoqqichning shiqillaganini eshitdim. Orqa tarafda Bob Dilan kuylardi

— «Neshvilldagi ufq»ni. Do'kondan qo'ng'iroq qilayotgan bo'lsa kerak.

— Sirasini aytganda, gap senda emas. Shunchaki men bunaqa gapirmasligim kerak edi,

— shoshib-pishib dedi u.

— O'zingga nisbatan qattiqqo'l ekansan.

— E, har holda, shunday bo'lishga harakat qilaman.

U jimib qoldi.

— Bugun uchrasha olamizmi?

— Bo'пти.

— «Jeyz bar»da, kechqurun sakkizda.

— Yaxshi.

— Men shunchaki... noqulay ahvolga tushib qoldim.

— Tushunaman.

— Rahmat.

U trubkani ildi.

19

Mening yoshim yigirma birda. Bu haqda uzoq gapirish mumkin.

Hali yoshman, lekin avval yoshroq edim. Agar yoqmasa, yakshanba tongini kutish va «Empayr-Steyt-Bilding» tomidan sakrash mumkin.

Buyuk Turg'unlik davri haqidagi bir eski kinoda shunday hazilni eshitgandim:

«Empayr-Steyt-Bilding tagidan o'tayotgan chog'imda doim soyabonni ochaman. Tepadan odam to'kilgani-to'kilgan».

Men yigirma birdaman va hali o'lmoqchimasman. Uchta qiz bilan yotib ko'rganman.

Birinchisi men bilan bir sinfda o'qirdi. Biz o'n yetti yoshda edik va bir-birimizni sevamiz, degan qarorga keldik. Kechga yaqin o'rmonning ichkarisiga kirdik: u jigarrang tuflisini, oq paypoq, och yashil ko'ylagini va o'ziga loyiq kelmasligi ko'rinib turgan g'alati ich kiyimini yechdi. Keyin, biroz kalovlanib — soatini yechdi. Va biz «Asaxi Simbun»ning yakshanba soni ustida quchoqlashdik.

Maktab tugaganidan keyin qandaydir ikki oy ichida biz qo'qqisdan ajralishdik. Sababi yodimda yo'q, bu shunaqa sabab ediki, esda ham qolmaydi. O'shandan beri u bilan biror marta ham uchrashmadim. Ba'zan uyqum qochganda yodimga tushadi — vassalom.

Ikkinchi qiz darvishtabat edi. O'n olti yoshli, hamyonida sariq chaqasiz, boshida kapasi yo'q, ustiga ustak ko'kragi pachoq — ko'zlari, aksincha, ma'noli va chiroyli edi. Men uni «Sindzyuku» metro bekati yonida, atrofdagi harakatni to'xtatib qo'ygan kuchli namoyish avjiga chiqqan paytda uchratdim.

— Bu yerda so'rrayib tursang, politsiya ushlab olib ketadi, — dedim unga. U berkitilgan g'ov ustunlari orasida cho'qqayib o'tirgancha axlat qutisidan olgan sport gazetasini o'qiyotgandi.

— Mayli, olib ketishsin, — dedi u. — U yoqda boqishadi.

— Seni qara-yu!

— O'rganib ketganman.

Men sigaret tutatdim va unga ham taklif qildim. Yosh oqizuvchi gaz ko'zni achishtirardi.

— Bugun ovqat yeganmisan?

— Ertalab...

— Menga qara, seni ovqatlantiraman. Ketdik chiqish tomonga.

— Qanaqasiga sen meni ovqatlantirasan?

— Ha endi... — Nima deb javob qilishni bilmasdim, lekin uni g'ovdan tortib olib, berkitilgan ko'cha orqali Medziro tomonga olib ketdim.
Bu haddan tashqari kamgap qiz uyimda bir haftacha yashadi. Har kuni tushga yaqin uyg'onar, nimadir yer, chekar, kitob varaqlar, televizorga baqrayar, ba'zan hafsalasi bo'lib-bo'lmay men bilan jinsiy yaqinlikda bo'lardi. Uning bor narsasi — oq bo'z so'mkasi-yu, uning ichidagi ikkita ko'ylak, jinsi, uch juft kir ich kiyim va bir siqim doka edi.
— Sen qayerdansen? — so'radim bir safar undan.
— E, sen bilmaysan, — bergan javobi shu bo'ldi.
Bir kuni do'kondan oziq-ovqat solingan xalta ko'tarib qaytdim, uyda uning izi ham qolmabdi. Oq sumkasi ham ko'rinmadi. Yana ayrim lash-lushlari ham. Stol ustida bir siqim tanga, tamaki qutisi va yuvilgan futbolkam yotardi. Yana qog'oz parchasiga tirnab yozilgan xat. Bitta so'zdan iborat: «iflos». Men haqimda deb qo'rqaman.

Uchinchi xushtorim frantsuz bo'limining talabasi bilan universitet kutubxonasida tanishdim. Keyingi yili bahorgi ta'til paytida tennis korti yonidagi so'ligan daraxtzorda u o'zini osdi. Murdani keyingi semestr boshlanganida ko'rib qolishdi, shungacha u roppa-rosa ikki hafta shamolda tebranib turgan. Endi, qorong'i tushganda, hech kim daraxtzorga yaqin yo'lamaydi.

20

U «Jeyz-bar» peshtaxtasi ortida noqulay alpozda o'tirar va cho'pni likillatib jinjer-el quyilgan stakan tubidagi muz qoldiqlarini chayqalardi.
— Kelmaysan deb o'ylay boshlovdim, — yengil tortib xo'rsindi yoniga o'tirganimda.
— Axir va'da bergandim-ku. Shunchaki, ishlar bilan ushlanib qoldim.
— Qanaqa ishlar?
— Poyabzal. Poyabzal tozaladim.
— Mana bunimi? — U shubhalanib oyoq kiyimimga ko'z qirini tashladi.
— Ha yo'q, otamning poyabzalini! Oilamizda shunaqa an'ana bor. Farzandlar otaning oyoq kiyimini tozalashtirish shart.
— Nima uchun?
— Ha endi... Poyabzal — bu axir bir timsol. Tasavvur qil: otam, mahkumga o'xshab, har kuni kechqurun sakkizda uyga qaytadi. Men uning poyabzalini tozalayman, keyin ko'nglim xotirjam bo'lib, pivo ichishga ketaman.
— Yaxshi an'ana...
— Yo'g'-e?
— Ha-da! Otani hurmat qilish kerak-ku.
— Men juda hurmat qilaman. Ikkita oyog'i borligi uchun, xolos.
U «piq» etib kulib yubordi.
— Ajoyib oilang bor ekan.
— Nimasini aytasan... Pulni hisobga olmaganda, shunaqa ajoyibki, yig'lab yuborging keladi.
U cho'p bilan stakan tubini chayqalashni davom etardi.
— Mening oilam undan-da kambag'al edi.
— Sen qayerdan bilasan kim ko'proq kambag'alligini?
— Hididan. Boy boyga boqadi, suv soyga oqadi.
Jey bir shisha pivo keltirdi, men o'zimga quydim.
— Ota-onang qayerda yashashadi?
— Aytishni xohlamayman.
— Nega?
— Odobli odamlar boshqalarga uyida nima bo'layotganini aytishni yomon ko'rishadi.
— Sen odobli odammisan?
U o'n besh soniyacha o'yladi.
— Shunday bo'lishni xohlardim. Jiddiy aytganda. Kim ham xohlamasdi?
— Yo'q, baribir ayt.

— Nega?

— Birinchidan, bu haqda baribir kimgadir gapirishing kerak, ikkinchidan esa, men hech kimga aytmayman.

U jilmaydi, chekdi va peshtaxtadagi yog'och tolalariga miq etmay termilgancha og'zidan uch marta tutun chiqardi.

— Otam besh yil avval miyasidagi shishdan o'ldi. Roppa-rosa ikki yil azob chekdi, dahshat. Bor pulimizni ishlatdik, hammasini. Ustiga ustak, shu qadar abgor bo'ldikki, oqibatda oila buzilib ketdi. Bu aslida oddiy hol.

Men bosh irg'adim.

— Onang-chi?

— Qayerdadir yashaydi. Yangi yil arafasida tabrik xati yuboradi.

— Uni yaxshi ko'rmaysan, shekilli?

— Shunaqa, shekilli...

— Aka-singillaring-chi?

— Bitta singlim bor. Egizakmiz.

— Xo'sh, u qayerda?

— Bu yerdan o'ttiz ming yorug'lik yili narida.

U asabiy kuldi va stakanini chetga qo'ydi.

— Nega oilam haqida bo'lmag'ur gaplarni aytayapman o'zi? Yurak siqilib ketadi bu gaplardan hatto.

— Hechqisi yo'q, qo'yaver. Har qanday odamdayam shunga o'xshash dardi bo'ladi.

— Sendayam bormi?

— Mendayam. Ba'zan yaxshi ko'rgan o'yinchog'imni quchoqlaymanu yig'layman...

— Yaxshi ko'rgan o'yinchog'ing qanaqa?

— Soqol olganda suradigan krem.

Bu gapdan u endi quvnab kuldi. Bir necha yildan beri shunday kulmagan bo'lsa kerak.

— Menga qara, — dedim, — nega sen allaqanday sharbat ichib o'tiribsan? Ichkilikni tashladingmi?

— Hm, umuman aytganda, bugun ichish niyatim yo'q edi... Hay mayli, ko'ndirding.

— Xo'sh, nima ichasan?

— Oq vino, faqat sovuqrog'idan.

Jeyni chaqirib, yana pivo va oq vino buyurdim.

— Egizaging yoningda bo'lganda o'zingni qanday his qilasan?

— G'alati hissiyot. Bir xil qiyofa, teng taqsimlangan aql, bir xil o'lchamdagi siynaband... Badga uradi.

— Sizlarni ko'p adashtirishganmi?

— Ko'p. Sakkiz yoshgacha. Keyin menda to'qqizta barmoq qoldi va bizni boshqa hech kim adashtirmadi.

U xuddi kontsertga hozirlangan pianinochiday diqqat va ehtiyotkorlik bilan qo'llarini yonma-yon qo'ydi. Chap qo'lini oldim, yorug'ga tutdim va e'tibor berib qaradim. Kichkina qo'l, kokteylli stakanday sovuq. Undagi to'rt barmoq chiroyli — xuddi tug'ilganida ular to'rtta bo'lganday. Bunaqa tabiiylik mo'jizaday tuyulardi. Har holda, oltita barmoq ancha ishonarsiz ko'rinsa kerak.

— Sakkiz yoshimda jimjilog'imni changyutgichning motoriga tiqqanman. Shu ondayoq uzib olgan.

— Hozir u qayerda?

— Kim?

— Jimjiloq.

— Esimda yo'q. — U kulib yubordi. — Menga hali bunaqa savol berishmagandi, sen birinchisan.

— Jimjiloq yo'qligi bezovta qilmaydimi?

— Agar qo'lqop kiysam — bezovta qiladi.

— Shu, xolosmi?

U bosh chayqadi.

— Umuman bezovta qilmaydi deb bo'lmaydi. Lekin bo'yni yo'g'on yoki oyog'ini jun bosganlarchalikmas.
 Men bosh irg'adim.
 — Sen nima bilan shug'ullanasan? — so'radi u.
 — Universitetda o'qiyman. Tokioda.
 — Ta'tilga keldingmi?
 — Ha.
 — Nimani o'rganyapsan?
 — Tabiatshunoslikni. Hayvonlarni yaxshi ko'raman.
 — Men ham yaxshi ko'raman.
 Pivoni ichib bo'lib, kartoshkali chipsdan bir siqim oldim.
 — Mana, bilasanmi... Bxagalpurda dong'i ketgan qoplon bo'lgan — uch yilda u uch yuz ellikta hindini yegan.
 — Yo'g'-e?
 — Keyin «qoplonlar kushandasi» laqabli ingliz polkovnigi Jim Korbett sakkiz yil ichida, buni ham qo'shib hisoblaganda, bir yuz yigirma beshta qoplon va yo'lbarsni otgan. Sen baribir hayvonlarni yaxshi ko'raverasanmi?
 U sigaretni o'chirdi, vinoni ichib bo'lib, menga zavq bilan qaradi.
 — Yo'q, sen boshqachasan!

21

Uchinchi ma'shuqamning o'limidan ikki hafta o'tgach, Jyul Mishlening «Jodugar»ini* o'qidim. Zo'r kitob. Unda shunday joyi bor edi:

«Bosh sudya Remi Lorenskiy sakkiz yuz nafar jodugarni olovga tashlagan edi va o'zining qo'rqitish siyosati bilan juda g'ururlanardi. Bir safar u shunday degan: Men o'zimning adolatparvarligim bilan shunchalik mashhurman, shu kunlarda qo'lga tushirilgan o'n olti asira jallodni kutmasdan o'zlarini osishdi.»

«O'zimning adolatparvarligim bilan mashhurman»... Anchayin hayratlanarli!

22

Telefon jiringladi.

Men jiddiy mashg'ulotdan uzila olmasdim: basseynda oftobda kuyib qizarib ketgan yuzimga maxsus moy surtayotgandim. O'ninchi bor jiringlagandagina yuzimdan paxta dog'larini g'alvorchaga sidirib tashlab, kursidan qo'zg'aldim va trubkani oldim.

— Salom, bu men.

— Salom.

— Hozir nima qilayotganding?

— Hech nima.

Butkul yuzim yonardi; bo'ynimda osig'liq sochiq bilan yuzimni art-dim.

— Kechagi o'tirish uchun rahmat. Anchadan buyon bunaqa dam olmagandim.

— Bu yaxshi.

— M-m-m... Go'shtni yaxshi ko'rasanmi?

— Yaxshi ko'raman.

— Men juda ko'p dimlabman, o'zim bir haftadayam yeb tugatolmayman.

Yordamlashasanmi?

— Nega endi yordamlashmas ekanman.

— Unda bir soatdan keyin kel. Agar kechiksang, hammasini to'kindi paqirga tashlab yuboraman. Tushundingmi?

— Ha.

— Kutishni yomon ko'raman-da.

U trubkani qo'yib qo'ydi, hatto og'zimni ochishimga ham imkon bermadi.

Divanga ag'anadim va o'n daqiqacha shiftga qarab radiodan xit-paradni eshitdim. Keyin

dushga tushib, soqolni tozalab qirtishladim. Hozirgina kimyoviy tozalashdan keltirilgan bermud va ko'ylagimni kiydim. Ajoyib shom pallasi edi. Kun botishini zavqlanib tomosha qilib, dengiz qirg'og'ini yoqalab yurdim, katta yo'lga chiqiladigan joyga yetganda esa ikki shisha sovutilgan vino bilan bir quti sigaret sotib oldim.

U stolni bo'shatib, idishlarni joy-joyga qo'ygunicha, men mevalarga ishlatiladigan pichoq bilan shishani ochdim. Xonani dimlangan go'shtning issiq bug'i qopladi.

— Hatto o'ylamovdim buncha issiq bo'ladi deb. Do'zaxning o'zi-ya...

— Do'zaxda issiqroq.

— Nima, u yoqda bo'lganmisan?

— Odamlar aytishadi. U yer miyang qaynaydigan darajada qizib ketganda seni salqinroq joyga o'tkazishadi. Sal chetroqqa chiqasan — keyin yana jaziramaga.

— Saunadagiday.

— Aynan. Lekin shundaylar ham borki, ularni ortiga qaytarishmaydi, chunki ular endi aqldan ozib bo'lishgan.

— Ularni nima qilishadi?

— Jannatga jo'natishadi. Devor oqlashga. Jannatda, axir, devorlar oppoq bo'lishi kerak-da. Sal-pal dog' tegsayam, tamom, tartibsizlik. Bu, axir, jannat! Shuning uchun ham ular ertalabdan kechgacha, kekirdagidan o'pkasigacha chirib, devor oqlashadi.

U boshqa savol bermadi. Men shishaning ichida suzib yurgan tiqin burdalarini ildirib oldim va stakanlarga vino quydin.

— Sovuq vino — qaynoq yurak, — dedi u qadah so'zi o'rniga.

— Bu gap qayerdan?

— Reklamadan. Sovuq vino — qaynoq yurak. Ko'zing tushmaganmi?

— Yo'q.

— Televizor ko'rmaysanmi?

— Kamdan-kam. Oldinlari ko'p ko'rardim. Hammasidan ham Lessi haqidagi kino yoqardi. Eng birinchi it o'ynagan paytda.

— Ha, aytgancha, sen hayvonlarni yaxshi ko'rasan-ku.

— Ha.

— Agar vaqtim bo'lganida men ertalabdan kechgacha ko'rardim. Nima ko'rsatsa hammasini. Mana, masalan, kecha tabiatshunos bilan kimyogarning bahsini ko'rsatishdi. Ko'rmadingmi?

— Yo'q.

U vinodan ho'pladi va eslayotganday boshini chayqadi.

— U yerda Paster haqida gap ketdi. U ilmiy intuitsiya kuchiga ega bo'lgan.

— Ilmiy intuitsiya kuchiga?

— E, qisqasi... Olimlar odatda shunday muhokama qilishadi: A Vga teng, V bo'lsa Sga, demak, A Sga teng. Mana, shuni isbotlash talab etilgandi. To'g'rimi?

Men boshimni irg'adim.

— Paster esa unaqa bo'lmagan. Uning boshida faqat A Sga teng degan fikr bo'lgan, xolos. Hech qanday isbotlarsiz. Uning haqligini tarix ko'rsatdi. U o'zining umri davomida son-sanoqsiz juda qimmatli kashfiyotlar qildi.

— Ha, to'g'ri, chechakka qarshi emlashlar...

U stakanni stolga qo'yib, menga garangsib qaradi.

— Chechakka qarshi emdorilar — bu Jennerniki! Universitetga qanday qilib kirkangan o'zi?

— Ha, esimga tushdi: antitelalar! Va past haroratli tozalash.

— To'g'ri.

U tishlarini ko'rsatmay, g'olibona kuldi. Vinoni ichib tugatib, o'ziga yana quydi.

— Munozarada bu qobiliyatni ilmiy intuitsiya deb atashdi. Senda shunaqa bormi?

— Mutlaqo yo'q.

— Agar bo'lganda-chi?

— Bo'lganda, balki biror narsaga asqotardi. Misol uchun, qiz bilan yotganingda nafi

tegishi mumkin.

U kulib yubordi va oshxonaga chiqib ketdi. Dimlangan go'sht solingan kostryul, salat solingan likopcha va to'g'ralgan bo'ltanon ko'tarib qaytib keldi. Lang ochilgan derazadan, nihoyat, salqin shabada esdi.

Biz plastinkaning jo'rligida shoshmasdan ovqatlanishga kirishdik. U, asosan, universitet va Tokiodagi hayot haqida savollar berdi. Suhbat unchalik sermazmun chiqmayotgandi. Mushuklar ustida qilingan tajribalar to'g'risida ("Nima deyapsan, biz ularni o'ldirmaymiz! Bu psixologik tajribalar!" — deya aldadim men, garchi ikki oyda o'ttiz oltita mushuk va mushukvachchalarning jonini olgan bo'lsam-da), namoyish va ish tashlashlar haqida gurunglashardik... Politsiyachi urib sindirgan tish ko'rsatildi.

— Undan o'chingni olishni xohlamaysanmi? — so'radi u.

— Shu yetmay turuvdi...

— Nega? Sening o'rningda bo'lganimda uni izlab topib, hamma tishini bolg'acha bilan qoqib tashlagan bo'lardim.

— Birinchidan, men — bu menman. Ikkinchidan, bu allaqachongi ish. Uchinchidan esa, ularning hammasining basharasi bir xil — uni men qanday topaman?

— Demak, ma'ni yo'q ekan-da?

— Nimaning ma'nisi?

— Nega sening tishingni urib sindirganining.

— Demak, yo'q ekan.

U hafsalasi pir bo'lib g'o'ldiradi va bir bo'lak go'shtni og'ziga tashlab yubordi. Qahva ichib bo'lingach, tor oshxonada idish-tovoqlarni yuvdik, keyin stolga qaytib o'tirib, "Modern Jazz Quartet"ning qo'shig'ini eshitib chekdik.

Uning ustida keng kalta shim va ichidan siynalarining tugmasi aniq-tiniq ko'rinib turgan yupqa matodan tikilgan ko'ylak bor edi. Ustiga ustak bir necha marta stol ostida oyoqlarimiz to'qnashdi — va men battar qizardim.

— Ovqat qalay? Yoqdimi?

— Juda.

U pastki labini xiyol tishladi.

— Nega so'ramaguncha o'zing bir narsa demaysan?

— Ha, negadir... Odat... Eng muhim gapni aytishni doim unutaman.

— Senga maslahat bersam maylimi?

— Bera qol.

— Bunaqa odatdan qutulish kerak. U senga qimmatga tushishi mumkin.

— Ha, ehtimol. Lekin bu xuddi axlatxonadan olingan mashinaday: bir joyini tuzatsang, boshqa nobop joyi ko'zga tushadi.

U kulib yubordi va boshqa plastinkani qo'ydi — endi Marvin Gey kuylay boshladi. Soat millari sakkizga yaqinlashib qolgandi.

— Poyabzallar qanday — bugun tozalamasayam bo'ladimi?

— Uxlashdan oldin tozalayman. Tishlarimniyam bir yo'la.

Gaplasha turib, u stolga ozg'in tirsaklarini tiradi, qo'llariga iyagini qulayroq qilib qo'ydi-da menga tikildi. Bu g'ashimga tegardi. Ko'zimni olib qochish uchun cheka boshladim, bir necha marta qiziqsinganday derazaga nigoh tashladim — lekin, aftidan, qilig'im faqat kulgini qistardi.

— Mana endi ishonsa bo'ladi, — dedi u.

— Nimaga?

— O'shanda sen meni hech narsa qilmaganingga.

— Nega sen bunday deb o'ylayapsan?

— Aytaymi?

— Kerakmas.

— Sezgandim, shunday deyishingni. — U hirlingladi, menga vino quydi va tuyqus esiga nimadir tushganday, deraza ortidagi qorong'ulikka qaradi.

— Men ba'zan: hech kimga xalaqit bermay yashash qanday yaxshi, deb o'ylayman!

Sening-cha, buning iloji bormikan?

— Bilmaymanam...
— Ayt-chi: men senga xalaqit bermayapmanmi?
— Mutlaqo.
— Hozir, deyaapman men.
— Ha-da, hozir.

U tortinibgina stol ustidan qo'lini uzatdi, mening qo'limni ushladi va bir muddat tutib turib, keyin qo'yib yubordi.

— Ertaga ketayapman.
— Qayoqqa?
— Hali bir qarorga kelganim yo'q. Biror tinch va salqin joyga ketmoqchiman. Bir haftaga. Men boshimni irg'adim.
— Kelishim bilan qo'ng'iroq qilaman.

* * *

Mashinani uyga haydab borarkanman, beixtiyor birinchi uchrashuvimni esladim. Yetti yil burungi. Uchrashuvning boshidan oxirigacha men go'yo unga aynan bitta savolni beravergandayman: "Zerikmayapsanmi?"

Biz bosh rolda Elvis Presli o'ynagan kinoni ko'rdik. Unda shunaqa so'zlar aytiladigan qo'shiq bor edi:

Biz arazlashgandik,
Va men maktub yubordim.
Kechirim so'radim,
Lekin yetib bormadi.
Qaytib keldi,
Ortga qaytdi.
Manzil noaniq,
Oluvchi notayin.

Vaqt haddan tashqari tez oqayotir.

23

Men birga yotgan uchinchi qizcha a'zoyimni "raison d'etre" deb atardi. "Hayot mazmuni".

* * *

Bir paytlar insonning raison d'etresi haqida chog'roq bir esse yozmoqchi bo'lgandim. Yozishga yozmadim-u, lekin o'ylab yurgan vaqtlarimda o'zimga ajoyib — dunyodagi hamma narsani son qiymatiga ko'chirishdek odat orttirdim. Bu odat sakkiz oycha meni band etdi. Elektr poyezdda ketayotganimda yo'lovchilarni sanab chiqardim. Zinadan yursam — pog'onalarini sanardim. Qiladigan hech ishim qolmaganda tomirimning urishini o'lchardim. Yozuvlarimga qaraganda, bu vaqt ichida — aynan 1969 yilning o'n beshinchi avgustidan keyingi yilning uchinchi apreligacha — men 358 ta ma'ruzaga kirganman. 54 marta jinsiy aloqa qilganman va 6921 dona sigaret chekkanman.

O'sha paytlar men chindan ham bunday son qiymatlari odamlarga bir nimalar haqida xabar berishi mumkin, deb o'ylardim. Modomiki, odamlar xabardor bo'ladigan "bir nimalar" bor ekan, demak, o'z-o'zidan ayonki, men ham mavjudman! Lekin ma'lum bo'ldiki, aslida odamlarning men chekkan sigaretlar yoki men oyoq bosib chiqqan pog'onalar soni bilan zig'ircha ishlari yo'q ekan. Hatto a'zoimning o'lchami bilan ham ularning ishi yo'q. Shu ko'yi men o'zimning raison d'etremni ko'zdan qochirdim va butunlay yolg'iz qoldim.

* * *

Uning o'limi haqida eshitib, 6922-sigaretni chekdim.

O'sha oqshom Kalamush bir tomchiam pivo ichmadi. Xavotirli alomat. Pivo o'rniga u bir o'tirishda besh hissa muz solingan viskini sipqardi.

Biz nimqorong'u uzoq burchakdagi pinbolda vaqt o'tkazdik. Ma'lum miqdor mayda pul evaziga bu dardisar matoh anchagina vaqtni yeydi. Ammo Kalamush hamma narsaga jiddiy qarardi. Darvoqe, mening olti o'yindagi ikkita g'alabam qariyb mo'jiza edi.

— Hoy, senga nima bo'ldi o'zi?

— Hech nima, — javob berardi Kalamush.

Peshtaxta yoniga qaytib, ichdik — men pivo, u viski. Keyin musiqa avtomatidagi plastinkalarni birin-ketin eshita boshladik, bir sirasiga hammasini — jim, bir so'z demay eshitdik. "Everyday People", "Woodstock", "Spirit in the Sky", "Hey There, Lonely Girl"...

— Senga iltimosim bor, — dedi Kalamush.

— Qanaqa?

— E, bittasi bilan uchrashish kerak...

— Ayol bilanmi?

U biroz talmovsirab, bosh irg'adi.

— Mening nima aloqam bor?

— Boshqa kimdan so'rayman men yana? — to'ng'illadi Kalamush va oltinchi hissadan ho'pladi. — Kostyum bilan bo'yinbog'ing bormi?

— Bor. Faqat...

— Unda ertaga ikkida. Menga qara, ayollar — ular o'zi nima yeyishadi?

— Poyabzalning tagcharmini.

— Bor-e...

Kalamushning xush ko'rgan taomi yangi pishirilgan quymoq edi. U quymoqdan bir yo'la besh-oltitasini chuqur likobchaga uyardi-da, pichoq bilan to'rt bo'lak qilib kesib, ustidan bir shisha koka-kola quyardi.

Birinchi marta Kalamushning uyiga kelganimda u ochiq havoga chiqarilgan stolda, may oyining mayin quyoshi nurlari ostida aynan shu ishtaha tortmaydigan taomni yutayotgandi.

— Bunaqa yegulik shunisi bilan mazzaki, — tushuntirdi u menga, — unda ovqat bilan ichimlikning xususiyatlari mujassam.

Keng, qalin bog'da turli-tuman tur va rangdagi qushlar yig'ilardi. Ular g'ayrat bilan o'tloqqa mo'l-ko'l sochilgan makkabodroqni cho'qilashardi.

Uchinchi qallig'im haqida gapirmoqchiman.

Yo'q odamlar haqida gapirish doim qiyin. Yoshligida o'lgan ayol to'g'risida-ku — judayam qiyin. Ular, axir, abadiy yoshligicha qolishgan...

Bizlar esa, tirik yurganlar, qariyapmiz. Har yil, har oy va har kun. Menga ba'zan shunday tuyuladiki, soat sayin qariyotgandayman. Va, eng dahshatlisi — aslidayam shundayligi.

* * *

U aytarli chiroyli emasdi. "Chiroyli emas" degani o'zi nimani anglatadi? Bunday desa to'g'riroq bo'ladi: "U o'ziga munosib darajada chiroyli emasdi".

Menda uning faqat bitta fotosurati bor. Orqa tomoniga: "avgust 1963 y.", deb yozib qo'yilgan. Prezident Kennedining boshini teshishgan yil. Allaqanday dala-hovlilar joylashgan joydagi dengiz to'g'oni — u o'tiribdi va zo'rma-zo'raki kulayapti. Sochlari Jin Sebergnikiga* o'xshatib (garchi, to'g'risini aytsam, bu turmak menga ko'proq Osventsimni eslatardi) kalta qirqilgan, qizil katakli uzun ko'ylak... Suratda u beso'naqay — va chiroyli. Bu shunday go'zallikki, ko'ngilni o'rtab yuboradi.

Xiyol ochiq lablar. Sal ko'tarilgan burun. Pala-partish kokil — o'zi kesgani aniq. Shishinqiragan yonoqlar va bittasida — arang ko'z ilg'aydigan husnbuzar... Suratda u o'n to'rt yoshda. Yigirma bir yilga jam bo'lgan hayotining eng go'zal lahzasi. Keyin ularning bari qayoqqa g'oyib bo'lganini faqat tasmolash mumkin, xolos. Nima sababdan, qanday maqsadda... Men bilmayman. Hech kim bilmaydi.

* * *

“Men universitetga samoviy yangilikni egallash uchun kirganman”, dedi u bir safar jiddiy ohangda. Tonggi soat to'rt edi, biz to'shakda yalong'och yotgandik. Men qiziqdim, nima o'zi bu samoviy yangilik degani, deb so'radim. “Buni tushuntirib bo'larkanmi?”, — dedi u. Va sal o'tib qo'shib qo'ydi: “U osmondan, xuddi farishtalarning qanotiga o'xshab, tushib keladi”. Men osmondan to'g'ri universitet hovlisiga tushib kelayotgan farishtalarning qanotlarini tasavvur qilishga urindim. Uzoqdan ular qog'oz qo'lsochiqlarni eslatardi.

* * *

U nega o'ldi, hech kimga ma'lum emas. Buni hatto uning o'ziyam tushunib yetmaganday tuyuladi menga.

27

Yomon tush ko'ribman.

Men katta qora qush emishman, changalzorlar ustidan g'arbga ucharmishman. Qanotlarimga og'ir jarohatdan oqqan qonning quyulgan qora quyqalari yopishib qolganmish. Osmonning g'arbiy yon-bag'ini qora bulutlar qoplab olayotir. Siyrak yomg'irning hidi keladi.

Anchadan beri tush ko'rmagandim. Hatto buning tush ekaniniyam darrov anglolmadim. Karavotdan sakrab turdim va dushga tushib, badanimdagi shilimshiq terni yuvdim, qotirilgan non va olma sharbati bilan nonushta qildim. Tamaki va pivodan tomog'im qichishar, go'yo bo'g'zimga eski uvadani tiqib qo'yishganday. Idish-tovoqni oshxonaga eltib, kiyim javonidan botqoq rangiday qoramtir-qo'ng'ir yengil kostyum, dazmollangan ko'ylak va qora bo'yinbog'ni oldim, ularni ko'tarib mehmonxonaga kirdim va konditsionerning ro'parasiga o'tirib oldim.

Teleyangiliklarda yozning eng issiq kunini tantanavor ohangda va'da qilishdi. Televizorni o'chirdim, akamning xonasiga kirib, uyulib yotgan kitoblardan bir nechtasini tanladim va ularni olib divanga cho'zildim.

Ikki yil burun akam bir uyum kitob bilan bitta qallig'ini tashlab, sababini ham aytmay Amerikaga jo'nab ketdi. Ba'zan uning qallig'i bilan tushlik qilardim. U men bilan akam bir-birimizga juda o'xshashligimizni aytardi.

— Qaysi tomondan? — hayron bo'lardim.

— Hamma tomondan, — derdi u.

Balki, shundaydir. Meningcha, hamma gap biz akam ikkalamiz o'n yildan ortiq navbatma-navbat tozalagan poyabzallarda bo'lsa kerak.

Soat millari o'n ikkini ko'rsatdi. Ijirg'anib jazirama haqida o'ylangan ko'yi, bo'yinbog'ni bog'lab kamzulni kiydim.

Vaqt serob edi, qiladigan ishning esa tayini yo'q. Shoshmasdan mashinada shahar aylandim. Ko'rimsizgina shahrim dengizdan tog'larga qarab cho'zilgandi. Anhor, tennis korti, golf maydoni, turna qator keng dang'illama hovli-joylar, devor, yana devor, bir nechta bejirim restoran va do'konchalar, eski kutubxona, eshako't bosib ketgan maydon va maymunlar solingan kataklari bor bog'. Shahar o'zgarmagan.

Men shahar tashqarisidagi egri-bugri yo'llarni gir aylandim va daryo qirg'og'i bo'ylab dengizga endim. Daryoning quyilish joyi yaqinida oyog'imning chigilini yozay deb mashinadan tushdim. Tennis kortida oq kepkali, qora ko'zoynak taqqan, badanlari oftobda qizargan ikkita qiz bir-biriga koptokchani irg'itishardi. Quyosh eng yuqori

nuqtadan og'ib tag'in kuchliroq kuydirar, ular esa tinmay raketkalarini silkitishar va butun kort bo'ylab ulardan ter tomchilari sachrardi.

Ularga besh daqiqacha qarab turgach, mashinaga qaytdim, o'rindiqqa suyanib o'tirdim va ko'zlarimni yumdim. Erinchoqlik bilan to'lqinlar shovqinini va raketkaning to'qillashini eshitdim. Yengil janub shabadasi esdi, dengiz va qaynoq asfalt hidi dimog'imga urildi. Uzoq o'tgan yozni esladim. Qiz terisining taftini, eski rok-n-rollni, kirxonadan hozirgina olib kelingan ko'ylakni, basseyinning yechinish xonasidagi sigaret tutunini, noayon tuyg'ularni... Shirin tush — u go'yo abadiy takrorlanayotganday. Lekin bir safar yoz keldi (qaysi yil edi?) — tush esa, qaytalamay qo'ydi.

Roppa-rosa ikkida men "Jeyz-bar"ning oldida to'xtadim. Kalamush yo'l chetidagi to'siqda Kazandzakisni — "Isoning so'nggi vasvasasi"ni o'qirdi.

— Qizing qani? — so'radim men.

Kalamush indamay kitobni yopdi, mashinaga kirdi va qora ko'zoynagini taqdi.

— Qizim kelmaydi.

— Qanaqasiga kelmaydi?

— Shunaqasiga.

Men xo'rsindim, bo'yinbog'ni yechib, kamzul bilan birga orqa o'rindiqqa otdim va cheka boshladim.

— Xo'sh, biror yoqqa boramizmi?

— Hayvonot bog'iga.

— Bo'pti-da...

28

Endi o'zimning shahrim haqida gapirib beraman. Men tug'ilgan, o'sib-ulg'aygan va birinchi marta qiz bilan yotgan shahar to'g'risida.

Oldda — dengiz, ortda — tog'lar, yonboshda — ulkan bandargoh. Kichkinagina shaharcha. Bandargohdan qaytayotib, rulni katta yo'lga burganingda, hatto chekishga ham hojat qolmaydi. Gugurt chaqishga ulgurmay turib yetib kelasan.

Aholi — yetmish mingdan sal ortiqroq. Bu besh yil burungi raqam, lekin o'sha vaqtdan beri o'zgargani dargumon. O'rtahol oila bog'i bor ikki qavatli uyda yashaydi, avtomobilga ega, ayrimlarda ikkita.

Bu raqamlarni men o'ylab topganim yo'q — ularni moliya yilining yakunida hokimlikning ma'lumotlar bo'limi e'lon qiladi. Menga, ayniqsa, ikki qavatli uylar haqidagisi yoqadi.

Kalamush tomida boloxonasi bor uch qavatli uyda yashardi. Yer osti garajida uning "TR-3"i* otasining "Mersedes"i bilan do'stona qo'shnichilik qilardi.

Shunisi qiziqki, uydagi yagona ko'ngilochar joy garaj edi. Hayhotday — chog'roq samolyot uchun saroy o'rnini ham o'tashi mumkin. Eskirgan yoki shunchaki badga urgan televizor va muzlatkichlar, stol va yumshoq o'rindiqlar, idish-tovoq javoni-yu stereosistemalar bilan to'ldirib tashlangan. Biz u yerda ko'p pivo ichganmiz.

Kalamushning otasi haqida men deyarli hech nima bilmayman. Uni biror marta ko'rmaganman ham. Kalamushdan otasi haqida so'raganimda, u aniq-tiniq qilib:

"Mendan yoshi ancha katta va buning ustiga erkak", deb javob berdi.

Uzunquloq gaplarga qaraganda, Kalamushning otasi qachondir bir paytlar, hali urush boshlanmasdan burun, kambag'al bo'lgan. Urush arafasida u kimyo farmatsevtika korxonasini qo'lga kiritishning uddasidan chiqqan va hasharotlarga qarshi surkaydigan dori savdosi bilan shug'ullangan. Uning qanchalik foydali ekanini hech kim aniq bilmagan, biroq front chizig'i janubga siljigani sayin dori ham qo'lma-qo'l sotilavergan. Urush tugagach, u dorini omborga joylab, shubhali oziq moddalar sotishga kirishgan, Koreyadagi urushdan so'ng esa, uy-ro'zg'orda ishlatiladigan kir yuvish vositalari savdosiga o'tgan. Yana aytishlaricha, ingrediyentlar hamma joyda bir xil bo'lgan. Xuddi shunday bo'lgan bo'lishi mumkin.

Yigirma besh yil burun hasharotga qarshi surkaydigan dori qoplangan yapon askarlarining murdalari Yangi Gvineya changalzorlarida taxlanib yotgan. Bugun esa, har

bir hojatxonada — quvur tozalash vositasi muhayyo, aynan o'sha savdo belgisida. Mana shu tariqa Kalamushning otasi boyib ketgan.

Albatta, mening oshnalarim orasida kambag'al oiladan chiqqan bir yigit ham bor edi. Uning otasi shahar ichida qatnaydigan avtobusni haydardi. Avtobus haydovchilari orasida, balki boylari ham bordir — lekin oshnamning otasi kambag'allar toifasidan edi. Men tez-tez oshnamnikiga mehmonga kelardim — ota-onasi hech qachon uyda bo'lmasdi. Otasi o'zining chambaragini aylantirar yoki otchoparda o'tirardi, onasi esa kun bo'yi qayerdadir qo'shimcha ish bilan band bo'lardi.

Yigit men bilan bir sinfda o'qirdi, lekin do'stlashishga darrov bahona topila qolgani yo'q. Bir kuni tanaffus payti men kichik ehtiyojimni qondirayotgan edim, u yonimda saf tortdi. Ishni imi-jimida va bir paytda bitirib, birga-birga qo'llarimizni yuvdik.

— Menda-chi, bir narsa bor! — dedi u, qo'lini shimiga artarkan. — Ko'rishni xohlaysanmi?

Hamyonidan fotosurat chiqarib, menga uzatdi. Yalang'och ayol, oyog'ini kerib, o'zinikiga pivo shishasini tiqardi.

— Zo'r-a?

— Bundan zo'ri bo'lmaydi!

— Uyimga kel. Menda shunaqalari borki, ko'rib anqayib qolasan.

Biz u bilan shunday do'stlashdik.

Shahrimizda har xil odamlar yashaydi. O'n sakkiz yil ichida men bu yerda ko'p narsaga o'rgandim. Shahar mening yuragimda shunday baquvvat tomirlar yoydiki, xotiralarning bari deyarli u bilan bog'liq. Lekin o'sha ko'klamda, universitetga kirib shahrimni tark etganimda, ruhimda yengillikni his etgan edim.

Endi, yozgi va ko'klamgi ta'tilda, qiladigan ishim faqat pivo ichish, xolos.

29

Hafta bo'yi Kalamush boshini osiltirib yurdi. Kuz yaqinlashib qolganidanmi, qizlar tufaylimi... Og'zini poylagan bilan gap ololmaysan.

Kalamush uzoq ko'rinmagan paytlar men Jeyga tirg'alardim:

— Menga qara, Kalamushni nima jin urdiykan, sen qanday fikrdasan?

— E, o'zim ham hech tushunmayman... Balki, yoz oyoqlayotgani uchunmi?

Kuz yaqinlay boshlaganda Kalamush doim umidsizlikka tushardi. U ma'nisiz nigohini kitobga qadab, peshtaxta ortida o'tirardi, men u bilan gaplashishga uringanimda qisqa va kayfiyatsiz javob qilardi. G'ira-shira ko'chada salqin shamol esib, kuzning hidi sal-pal dimoqqa urilgan paytda u dabdurustdan pivoni yoddan chiqarar, muz solingan viski ichishni boshlardi, musiqali avtomatga tinimsiz pul tashlar, mashina u bilan o'ynashni rad etmaguncha pinbolni azoblar — va Jeyni asabiylashishga majbur qilardi.

— Uning, aftidan, kayfiyati chatoq, go'yo tashlab ketishayotgandek his qilayotir o'zini, — dedi Jey. — Men uni tushunaman.

— Qanaqasiga?

— Axir, hamma har yoqqa ketayotir — kimdir ishlashga, kimdir qayta universitetga... Sen ham-a?

— Ha, men ham.

— Mana, ko'rdingmi...

Men bosh irg'adim.

— Bu qizcha-chi?

— Salgina vaqt o'tsin, unutilib ketadi. Gapim esingda tursin.

— Ularga nima bo'lgan o'zi?

— Kim biladi ularni...

Jey to'xtab qolgan yumushiga tutindi. Boshqa hech narsa so'ramadim. Musiqali avtomatga mayda tanga tashlab, bir nechta qo'shiq eshitdim-da, pivom turgan peshtaxtaga qaytdim.

O'n daqiqacha o'tib, ro'paramda tag'in Jey paydo bo'ldi.

— Menga qara, Kalamush sen bilan biror narsa haqida gaplashmadimi?

— Yo'q.

— G'alati.

— Nega?

Jey stakanni arta turib o'ylanib qoldi.

— U, albatta, sen bilan maslahatlashishi kerak.

— Unda nega bunaqa qiladi?

— Bu oson emas. Qo'rqadi, sening mazax qilishingdan.

— E, kalaka qilmayman uni!

— Avzoyingga qaraganda bu sezilmaydi. Boz ustiga, ko'pdan beri. Sen yaxshi yigitsan, lekin — nima desa bo'ladi — ayrim narsalarni sen negadir bema'ni, e'tiborga arzimaydi, deb hisoblaysan. Shunday bo'lsa-da, men biror yomon gap gapirmoqchi emasman.

— Bu tushunarli.

— Men, har holda, sendan yigirma yosh kattaman va hayotda ko'p narsani ko'rganman. Shuning uchun ham sizlarga munosabatim xuddi...

— Xuddi buvinikidaymi?

— Ha.

Kulgidan pivoga bo'g'ilib qolishimga sal qoldi.

— Mayli, u bilan o'zim gaplashishga urinib ko'raman.

— Shunday qil, bu to'g'ri ish bo'ladi.

Jey sigaretani o'chirdi va ishiga qaytdi. Qo'limni yuvmoqchi bo'ldim. Jo'mrakning ustidagi oynadan aksim menga qarab turardi. Ortga qaytib, yoqimsiz hislardan qutilish uchun yana bir shishani bo'shatdim.

30

Bir vaqtlar hamma qaysar bo'lib ko'ringisi kelardi.

Maktabni tugatishimdan biroz oldinroq men o'zimning ichimga yashirgan fikrlarimning yarmilarini tashimga chiqarishga qaror qildim. Nega bunday qarorga kelganman, hozir eslolmayman — biroq buni bir necha yil qat'iy bajardim. Keyin esa, kutilmaganda fikrlarimning teng yarmini umuman so'z bilan ifodalab berolmasligimni payqadim. Buning qaysarlikka qanday aloqasi bor, menga unchalik tushunarsiz. Inglizchasiga bu cool, "sovuqqon" deyiladi — bu ma'noda meni yil bo'yi muzini eritisholmagan eski muzlatkichga qiyoslash mumkin.

Vaqt botqog'ida tipirlab, mulgib ketayotgan idrokimni pivo va tamaki bilan qamchilab, shu satrlarni yozishda davom etayapman. Bir necha marta qaynoq dush qabul qilaman, har kuni ikki mahal soqol olaman va tinimsiz eski plastinkalarni eshitaman. Mana, hozir ham orqa tarafimda allaqachon unutib yuborilgan Piter, Pol va Meri kuylashayapti:

"Don't think twice, it's all right"*

31

Ertasi kuni Kalamush bilan shahar chetidagi mehmonxonalardan birining hovuzida uchrashishga kelishdim. Yoz oyoqlab borayotgandi, ustiga ustak u yoqqa yetib olish o'ng'aysiz edi, shuning uchun basseynga xaloyiq kam yig'ilgan, o'ntacha odam bor. Ularning yarmini mehmonxonaga tushgan amerikaliklar tashkil qilardi, — suvda cho'milish o'rniga ular astoydil oftobga toblanishardi.

Mehmonxonani oqsuyaklarning qasriga o'xshatib qurishgan. Uning hashamatli yashil hovlisi bo'ylab, hovuzni bosh binodan ajratib turgan, pushtirang butalar yastangan. Butalar unchalik baland bo'lmagan qirga tirmashib ketgan, qirdan, shuningdek, ko'rfaz va shahar yaqqol ko'rinib turardi.

Biz Kalamush bilan 25 metrli hovuzda bir necha marta kim o'zarga suzishdik, keyin shezlonglarda yonma-yon o'tirib, muzdek kolani ochdik. Nafasimni rostlab olib, sigaret tortdim. Kalamush yosh amerikalik ayolning hovuzda suzishiga jimgina qarab o'tirardi.

Bulutsiz osmon bo'ylab oppoq, xuddi muzlatilgandek iz qoldirib bir nechta reaktiv samolyot uchib o'tdi.

— Kichkinaligimizda, — dedi Kalamush tepaga qarab, — samolyot ko'p uchganday tuyulardi. Buning ustiga, asosan, amerikaniki, ikki fyuzelajli, parragi bor.

— “R-38”mi?

— Yo'q, yuk tashiydigan. Katta, “R-38” qayoqda... Bir paytlar juda past uchishardi, harbiy belgilarini aniq ko'rsa bo'lardi. Yana “DS-6”, “DS-7”ni eslayman, bir safar “Seyber”ni ko'rganman!

— Biroq, bu allaqachonlar...

— Ha, Eyzenxauer davrida. O'shanda bandargohimizga harbiy kema ham kirgan. Shaharda qayoqqa tupurma — dengizchiga tushadi. Qo'riqchilar ham juda ko'p. Qo'riqchilarni sen ko'rganmisan?

— Ha.

— Hozir hammasi qayoqqadir g'oyib bo'lgan... Lekin buni men harbiylarni yoqtirganim uchun aytmayapman.

Men boshimni irg'adim.

— Ammo “Ceyber” zo'r samolyot edi! Napalm tashlashni boshlamaguncha. Sen hech ko'rganmisan, napalmni qanday tashlayotganini?

— Ko'rganman, urush haqidagi filmlarda.

— Odamlar nimalarni o'ylab chiqarishmaydi-a! Lekin buni zo'r o'ylab topishgan. Kim biladi, balki o'n yilcha o'tar — napalmni sog'inishar tag'in.

Men kulib yubordim va ikkinchi sigaretni oldim.

— Samolyotlarni yaxshi ko'rasan-a?

— Bir paytlar uchuvchi bo'lishni xohlardim. Keyin ko'zimni ishdan chiqarib, fikrimdan qaytdim.

— Tushunarli.

— Osmonni yaxshi ko'raman. Unga istagancha termulib o'tirishim mumkin — jonga tegmaydi. Xohlamasam, qaramay qo'ya qolaman.

Kalamush besh daqiqacha jim bo'ldi, keyin esa tuyqusdan gapga tushib ketdi:

— Ba'zida toqat qilolmaysan. Boy ekaningni anglash va shunga o'xshash... Ba'zan qochib ketging keladi. Tushunasanmi?

— Qanaqasiga bu — “qochib ketging keladi”? — ajablandim. — Lekin... Agar sen rostdan ham shuni xohlasang — ol-da qochivor.

— Ehtimol, bu eng yaxshi ish bo'larmidi. Biror-bir begona shaharga ketib, hammasini boshida boshlash... Yomonmi?

— Nima, universitetniyam tashlaysanmi?

— E, men uni allaqachon tashlaganman. Qaytishga hecham xohish yo'q.

Qora oynaklar ortidan Kalamushning ko'zlari hovuzda suzayotgan qizni kuzatishda davom etardi.

— Nima uchun tashlading?

— E... Jonga tegib ketgani uchun-da. Boshida harakat qiluvdim bo'lmasa. Rosa kuch sarflagandim, hozir o'zimning ham ishongim kelmaydi. Hamma bilan ishim bor edi mening — o'zim ham tinchimasdim, boshqalarni ham tinchitmasdim. Hatto shuning oqibatida politsiyachilar meni urishgan. Lekin vaqti kelib, har bir odam o'zining joyini topadi. Faqat men joyimni topganim yo'q. Bilasanmi, shunaqa o'yin bor — bolalar kursining atrofida aylanib yuguradi-da, keyin birdan kursilarga o'tirib oladi — bir bolaga esa kursi yetmaydi.

— Endi nima qilmoqchisan?

Kalamush o'yga tolib oyoqlarini sochiqqa artdi.

— Qissa yozishni o'ylayapman. Sen shunga qanday qaraysan?

— Ol-da, yozib tashla.

Kalamush bosh irg'adi.

— Qanaqa qissa yozmoqchisan?

— Yaxshi qissa. O'zimning qarichimga loyiq. Men, axir, o'zimni iste'dodli deb

hisoblamayman-ku... Ammo yozuvchilikning mohiyatini men shunda ko'ramanki, hech bo'lmaganda, kishi bir nimaga o'rganadi. To'g'rimi?

— To'g'ri.

— Odam o'zi uchun yozishi kerak... Yoki, deylik, chirildoqlar uchun.

— Chirildoqlar uchun?

— Ha-da.

Kalamush yalang'och ko'kragida osilib turgan prezident Kennedining surati tushirilgan yarim dollarlik tangani siypaladi.

— Uch-to'rt yil burun men bir qiz bilan Naraga* bordim. Dahshatli jazirama edi va biz u bilan uch soatcha qirlar orasidan yurdik. Biror-bir zog' yo'q, faqat qushlar chirqillab uchadi. Oraliqdan yurib o'tayotganimizda oyoqlarimiz ostida sayroqi chirildoqlar chirillaydi. Boshqa tirik jon yo'q. Juda qattiq issiq edi.

Biz charchab, o't-o'lani mayinroq qiya yonbag'irga o'tirdik. Shabadada huzurlandik va terlarimizni artdik. Yonbag'ir etagidan chuqur zovur o'tgan, uning ortida — suvdan chiqib turgan orolga o'xshash eski serdaraxt qo'rg'on. Imperator qabri. Sen uni hech ko'rganmisan?

Men bosh irg'adim.

— O'shanda men: bunaqa bahaybat narsa nima uchun qurilgan ekan, deb o'yladim.

Albatta, har qanday qabrda ma'no bor. Hamma ham qachondir o'ladi — va bu eslatishga o'xshaydi. Lekin bu yerdagisi qandaydir haddan tashqari katta edi. Ulkan hajm ba'zan narsalarning mohiyatini bilib bo'lmas darajada o'zgartirib yuboradi. Aslida, bu umuman qabrga o'xshamasdi. Bu tog' edi. Zovurda qurbaqalar suzib yurardi, devorni esa o'rgimchak to'ri qoplab olgandi.

Men jimgina qo'rg'onga qaradim va zovur tarafdin yelayotgan shamolni eshitdim.

O'shanda mening his qilganlarimni biror-bir so'z bilan ta'riflab bo'lmaydi. Yo'q, hatto his qilmadim ham — go'yo meni nimagadir o'rashdi. Yaxlit va butkul. Go'yo chirildoqlar, qurbaqalar, o'rgimchaklar, shamol — aynan bari — bir butunga evrilib, Koinotda oqayotganday!

Kalamush hovuri ko'tarilgan kolani ichib tugatdi.

— Shunday qilib, qachonki biror narsa yozmoqchi bo'lsam, doim o'sha yoz kunini va dov-daraxt bosgan o'sha qo'rg'onni eslayman. Va o'zimcha: chirildoqlar, o'rgimchaklar, qurbaqalar uchun, yashil maysa va shamol uchun biror narsa yozsam zo'r bo'lardi-da, deb o'ylayman...

Kalamush jim bo'lib qoldi, qo'llarini boshining orqasiga qo'yib, osmonga tikildi.

— Xo'sh... Biror narsa yozishga urinib ko'rdingmi?

— Yo'q. Bir qator ham.

— Bir qator ham.

— Siz — yer tuzisizlar...

— Nima?

— Agarda tuz kuchini yo'qotsa, uni yana qanday sho'r qilish mumkin?*

Kalamush Shunday Dedi.

Kechga borib osmonni bulut qopladi. Hovuzdan mehmonxonaning chog'roq mayxonasiga o'tib, u yerda biz Mantovani qayta ishlagan italiyan qo'shiqlar sadosi ostida sovuq pivo ichdik. Katta derazada bandargoh chiroqlari charaqlardi.

— Qallig'ing bilan oralaringda nima bo'lgan o'zi? — jazm etib so'radim men.

Kalamush qo'lining orqasi bilan labidan pivo ko'pigini artdi va o'yga botgancha shiftga tikilib qoldi.

— Umuman aytganda, senga bu haqida gapirmoqchi emasdim. Hammasi shunchaki ahmoqona...

— Lekin sen men bilan dardlashmoqchi eding-ku?

— Dardlashmoqchiydim. Ammo kechqurun o'yladim — dardlashgim kelmay qoldi.

Dunyoda shunday narsalar borki, ularni biz baribir o'zgartirolmaymiz.

— Masalan?

— Masalan, tish og'rig'i. Kunlardan bir kun tuyqusdan tishing og'riy boshlaydi — va birov qanchalik yupatmasin, bosilmaydi. Shunda sen o'zingdan g'azablanasan. Keyin esa, boshqalar o'zlaridan g'azablanmayotganini ko'rib, battar g'azablana boshlaysan.

Tushundingmi?

— Qisman, — dedim men. — Lekin agar yaxshilab o'ylab ko'rilsa, hammaning sharoiti bir xil. Biz hammamiz — buzuq samolyotdagi hamrohlarmiz. Albatta, omadlilar bor, omadsizlar ham bor. Kuchlilar bor, zaiflar ham bor. Boylar bor, kambag'allar ham bor. Lekin baribir hech kimda g'ayritabiiy kuch yo'q. Hamma bir xil. Bir nimasi borlar uni yo'qotishdan qo'rqishadi — hech nimasi yo'qlar esa, endi hech nimaga ega bo'lolmaslikdan g'amga botishadi. Hamma teng. Va buni payqashga ulgurgan odam sal bo'lsa-da kuchli bo'lishga urinishi kerak. Jilla qursa, shunchaki mug'ombirlik qilish lozim, bilasanmi? Aslida, kuchli odamlar hech qayerda yo'q — faqat o'zlarini shunday ko'rsatadiganlar bor.

— Savol bersam maylimi?

Men boshimni irg'adim.

— Sen, rostdan ham, shunga ishonasanmi?

— Ha.

Kalamush bir muddat, pivo quyilgan stakanga tikilib, jim bo'lib qoldi. Keyin o'ta jiddiy tarzda dedi:

— Hazillashgan edim, demaysanmi?..

Men Kalamushni uyiga eltib qo'ydim va qaytishda "Jeyz bar"ga kirdim.

— Gaplashib oldinglarmi?

— Gaplashib oldik.

— Xudoga shukur-e, — dedi Jey va oldimga qovurilgan kartoshka solingan likopchani qo'ydi.

32

Derek Xartfild, asarlari soni ko'pligiga qaramay, juda kamdan-kam hollarda hayot, orzu yoxud sevgi haqida ochiqchasiga yozgan. O'zining yarim avtobiografik, nisbatan jiddiy "Kamalak atrofida bir yarim o'ram" (1937), deb nomlangan — o'zga sayyoraliklar va qo'rqinchli mahluqlar tasvirlanmagani uchun ham jiddiy — kitobida Xartfild, keyinchalik kamso'zlik bilan yuragidagini ifodalash uchun, kinoya va beodoblik, hazil-huzul va kutilmagan gaplar bilan kitobxonni chalg'itadi.

"Mening xonamdagi muqaddas kitoblarning eng muqaddasi — telefon ma'lumotnomasiga qo'limni qo'yib, faqat haqiqatni gapirishga qasam ichaman. Hayot — bo'm-bo'sh. Lekin ma'lum bir najot, albatta, bor. Hayot azaldan bo'm-bo'sh, deb bo'lmaydi. Uni butkul bo'm-bo'sh qilish uchun juda katta kuch sarflash, silla quriydigan darajada kurashish talab etiladi. Bu kurashning aynan qay tariqa kechishini, aynan qanday usullar bilan biz hayotimizni yo'qlikka giriftor etishimizni bayon qilishning o'rni emas — gap juda cho'zilib ketadi. Agar kimgadir buni bilish o'ta zarur bo'lsa, Romen Rollanni — Jan Kristofni o'qiy qolsin. Unda hammasi yozilgan."

Nega "Jan Kristof" Xartfildni bunchalik o'ziga jalb etganini tushunish qiyin emas. Bu behad cho'zilib ketgan roman qat'iy xronologik batafsillik bilan inson hayotini tug'ilganidan o'lgunigacha tasvirlab beradi. Xartfild esa, roman xuddi jadval yoki chizmaga o'xshab xabar tashishi kerak, degan qarash tarafdori edi. Va bu xabarning chinligi uning hajmiga to'la mutanosib bo'lishi darkor.

Odatda, u Tolstoyning "Urush va tinchlik"ini tanqid qilardi. Hajmi uchunmas, albatta, Koinot G'oyasining yetarli darajada ifodalab berilmagani uchun. Ana shu nuqson tufayli romandan Xartfildning olgan taassuroti chala va noto'g'ri edi. "Koinot G'oyasi" iborasi uning tilidan, odatda, "bepushtlik" deganday chiqardi.

"Flandriya ko'ppagi"ni* u sevimli kitobim, deb atardi. "Nima deb o'ylaysiz, — so'rardi u, — it kartina uchun hayotini baxsh eta olarmidi?"

Bir suhbatda muxbir Xartfilddan so'radi:

— Sizning kitobingizning qahramoni Uord ikki marta Marsda va bir marta Venerada halok bo'ladi. Nahotki bunda zidlik bo'lmasa?

Savolga Xartfild shunday javob qildi:

— Nahotki siz koinot bo'shlig'ida vaqt qanday o'tishini bilmasangiz?

— Yo'q, — dedi muxbir. — Biroq bunday narsalarni hech kim bilmaydi!

— Unda hamma biladigan narsa haqida yozishdan qanday ma'no bor?

* * *

Xartfildning "Mars quduqlari" nomli hikoyasi bor — uning uchun noodatiy, ko'p jihatdan Rey Bredberining paydo bo'lishini oldindan daraklagan asar. Men o'qib chiqqanimga ko'p bo'lgan, batafsil eslolmayman. Lekin mazmuni taxminan bunday.

Mars yuzasi bo'ylab behad ko'p tubsiz quduqlar bor. Quduqlarni marsliklar o'n minglab yillar burun qazishgani ma'lum. Lekin eng qizig'i — bu quduqlar g'oyat ehtiyotkorlik bilan yerosti daryolarini yonlab o'tgan. Marsliklar ularni nima maqsadda qurishgani hech kimga ma'lum emas. Sirasini aytganda, marsliklardan quduqlardan boshqa hech qanday yodgorlik qolmagan. Na yozuv, na kulba, na idish-tovoq, na temir-tersak, na qabrlar, na raketalar, na shaharlar, na savdo avtomatlari. Hatto chig'anoqlar ham qolmagan. Faqat quduqlar. Yerlik olimlar buni tamaddun deb atash kerakmi, yo'qmi, bir qarorga kelisholmayotir — ayni damda quduqlarning o'n minglab yillar davomida bitta ham g'ishti ko'chmagan, vijdonan ishlangan.

Albatta, quduqlarga sarguzasht ishqibozlari va tadqiqotchilar tushishgandi. Ammo quduqlar shu qadar chuqur, yonboshlab ketgan yerosti yo'laklari shu qadar uzun ediki, hech arqon yetkizib bo'lmas, qaytib chiqishga to'g'ri kelardi. Arqonsiz tushganlardan esa birortasi qaytib chiqmadi.

Va kunlardan bir kun quduqqa yosh yigit, koinot daydisi tushdi. Koinotning ulug'vorligi uni holdan toydirgan va u imi-jimida halok bo'lgisi keldi. Tushib borarkan, quduq unga tobora qulay tuyular, badani esa yumshab allaqanday quvvat bilan to'lishardi. Bir kilometr chuqurlikda u qulay yerosti yo'lagini topdi va unga tushdi. U mo'ljalsiz, lekin sabot bilan mayin burilgan yo'lak bo'ylab borardi. Uning soati to'xtab qoldi, vaqt tuyg'usi yo'qoldi. Ehtimol, ikki soat o'tgandir, balki — ikki kun. U na ochlikni, na charchoqni his etar, noayon quvvat esa vujudini birday to'ldirib turardi.

Qo'qqisdan u quyosh nurini ko'rdi. Yer osti yo'lagi ikki quduqni tutashtirgandi — ko'tarilib, u o'zini yana yuqorida ko'rdi. Bir chetga o'tirdi, bepoyon sahroga va tepasida osilib turgan quyoshga ko'z tashladi. Qandaydir o'zgarish ro'y bergan edi. Shamolning hidi, quyosh boshqacha... Quyosh balandda turardi, lekin ulkan to'qsariq lo'nda botayotganday tuyulardi.

— Ikki yuz ellik ming yildan so'ng quyosh so'nadi! — shivirladi unga shamol. — "Shiq!" etadi-yu o'chadi. Ikki yuz ellik ming yil — bu juda oz muddat. Menga e'tibor berma, men shunchaki shamolman. Xohlasang meni "marslik", deb chaqir. Yomon jaranglamaydi. Garchi men uchun so'zlar ma'nosiz bo'lsa-da...

— Axir sen gapirayapsan-ku?

— Men? Sen gapirayapsan! Men faqat senga aytib turibman.

— Quyoshga nima bo'lgan o'zi?

— U qaridi. Yaqinda o'ladi. Biz bu yerda ojizimiz — sen ham, men ham.

— Nega buncha tez?

— Hecham-da. Sen quduqda yurganingda bir yarim milliard yil o'tdi. Vaqt o'qday uchadi

— sizlarda, axir, shunday deyishadi-ku? Sen tushgan quduq vaqt burumi bo'ylab qazilgan. Biz unda sayr qila olamiz. Koinotning ibtidosidan uning intihosigacha. Shu bois, bizda tug'ilish ham, o'lim ham yo'q. Faqat Shamol bor.

— Bir savolimga javob ber.

— Bajonidil.

— Sen nimaga o'rganding?

Shamol qahqah urib kuldi va havo titrab ketdi. Shundan so'ng Mars sathini yana abadiy

sukunat qopladi. Yigit cho'ntagidan to'pponchani olib, og'zini chintog'iga tiradi va tepkini bosdi.

33

Telefon jiringladi.

— Qaytib keldim, — dedi u.

— Kel, uchrashamiz.

— Bugun imkoning bormi?

— Albatta.

— Soat beshda YWCAGA* kirish joyida.

— U yerda nima qilayapsan?

— Frantsuzcha dars olayapman.

— Oui*.

Trubkani qo'yib, cho'milib oldim va pivo ichdim. Ichib bo'lmasimdan sharillab jala quyib yubordi.

O'sha joyga yetib borganimda, jala to'xtagandi — lekin binoning eshiklaridan chiqib kelayotgan qizlar shamsiyalarini goh ochib, goh yopib osmonga xavotirlanib qarab qo'yishardi. Mashinani kirish joyi ro'parasida to'xtatdim-da, motorni o'chirib, cheka boshladim. Eshikning har ikki yonida xuddi sahrodagi qabr toshlariday yomg'irdan qorayib ketgan ustunlar qo'qqayib turardi. Yaqinda YWCAning chirkinroq, qoramtir binosi yonida, turli firmalarga ijaraga berish maqsadida yana bitta bino qurishgandi. Tomiga muzlatgich reklama qilingan ulkan lavha osilgan. Kamqon, o'ttiz yoshlardagi peshbandli ayol kulimsirab egilganча, muzlatgichning eshigini — menga ichidagi narsalar ko'rinadigan qilib ochib turardi.

Muzlatgichning ichida muz, vanilli muzqaymoq bir litrli idishda va bir quti krevetka bor edi. Pastdagi pog'onada tuxum, yog', "kamamber" pishlog'i va cho'chqaning son go'shti saqlangan. Uchinchi pog'onaga esa, baliq va tovuqning oyoqlari tashlab qo'yilgan, eng quyida — pomidor, bodring, sarsabil va greypfrutlar. Eshikning tokchalarida — uch katta shisha koka-kola va pivo. Yana bir karton quti sut.

Men rulga tirsagimni tirab, bularning barini qay tartibda jig'ildonga urgan bo'lardim, deb o'yladim. Har qanaqasiga ko'rganda ham muzqaymoqqa qornimda joy yo'q edi. Ziravorlarning yo'qligiga esa, aslo chidab bo'lmasdi.

U oltidan o'tganda — yengi kalta pushtirang ko'ylakda va oq kalta etakli ko'ylakda ko'rindi. Sochlari orqaga bir tutam qilib yig'ilgan. Bir hafta ichida uning yoshiga uch yosh qo'shilganday tuyuldi — ehtimol, soch turmagidanmi, balki burun taqmagan ko'zoynakdandir.

— Qanaqa jala quydi-ya! — dedi u mashinaga joylashib o'tirib, etagini asabiy to'g'rilab.

— Ivib ketdingmi?

— Biroz.

Men orqa o'rindiqdan, hovuzda cho'milgandan so'ng shu yerda unutib qoldirgan sochiqni olib unga uzatdim. U sochiq bilan yuzini, sochlarini artdi va sochiqni menga qaytardi.

— Jala quyganda men shu yaqin-orada qahva ichayotgandim. Xuddi sel bosganday!

— Lekin biroz salqin bo'ldi.

— Ha, endi...

U derazadan qo'lini chiqardi. Gapimiz qovushmayotgandi. Oxirgi uchrashuvdan so'ng nimadir o'zgargandi.

— Qanday borib kelding? — so'radim men.

— E, men hech qayoqqa borganim yo'q. Senga yolg'on gapirgandim.

— Nega?

— Keyin aytib beraman.

34

Ba'zan shunday bo'ladiki, men yolg'on gapiraman.

Bu oxirgi marta o'tgan yili bo'lgandi.

Yolg'on gapirishni juda yomon ko'raman. Yolg'on gapirish va sukut saqlash — hozirgi insonlar jamiyatida avj olgan ikki og'ir gunoh. Biz haqiqatdan ham ko'p aldaymiz — yoki sukut saqlaymiz.

Lekin boshqa tomondan, agar biz yil bo'yi faqat gapirganimizda — ustiga ustak, haqiqatni va faqat haqiqatni gapirganimizda, kim biladi deysiz, ehtimol, haqiqat o'zining bor qadr-qimmatini yo'qotgan bo'larmidi...

* * *

O'tgan yili kuzda biz qallig'im bilan to'shakka kirib oldik, keyin juda qornimiz ochdi.

— Biror yegulik bormi? — so'radim men.

— Hozir qidirib ko'raman, — dedi u.

U to'shakdan yalong'och chiqib, muzlatgichni ochdi, qotgan bo'lkanon topib, dudlangan go'sht va salatning barglaridan sendvich hozirladi, qahva qaynatdi va buning barini menga olib keldi. Bu voqea oktyabrda bo'lgandi, oqshomlari sovuqroq edi. U bankaga konservalangan sulaymon-baliqday qotib to'ngan ahvolda to'shakka kirdi.

— Attang, xantal yo'q-da...

— Mazza!

Ko'rpaga burkanib, sendvichlarni tushirgancha, televizordan eski — "Kvay daryosidan o'tgan ko'prik"* filmini ko'rdik.

Oxirida ko'prikni portlatishganda u "oh", deb yubordi.

— O'zi nima uchun ular buni qurishdi, shuncha urinishib? — dedi u barmog'i bilan quti uchgan Alek Ginnesni ko'rsatib.

— Bu ular uchun or-nomus edi.

— Hm. — U og'iz to'la luqma bilan bir muddat inson or-nomusi haqida o'ylab qoldi. Doim shunaqa — uning miyasidan nimalar kechayotganini men hatto tasavvur ham qilolmasdim.

— Menga qara, sen meni yaxshi ko'rasanmi?

— Albatta.

— Uylanishni ham xohlaysanmi?

— Nima, hoziroq, shu yerdami?

— Vaqti kelib... Keyinroq.

— Xohlayman, albatta.

— O'zim so'ramagunimcha, sen menga bu gapni aytmding.

— E, aytish esimdan chiqibdi...

— Bolalar nechta bo'lishini xohlaysan?

— Uchta.

— O'g'illarnimi? Qizlarnimi?

— Ikkita qiz, bir o'g'il.

U kofeni sendvich bilan qo'shib yutdi-da, sinchiklab yuzimga tikildi.

— Yolg'onchi!

U shunday dedi.

Lekin bu unchalik to'g'ri emasdi. Men faqat bir narsada yolg'on gapirgandim.

35

Bandargoh yaqinidagi kichkina restoranga kirib, ozgina tamaddi qilib, "bladi meri" va burbon buyurdik.

— Haqiqatni bilishni xohlaysanmi? — so'radi u.

— Mana, o'tgan yili men sigirni yorib ko'rdim, — dedim men.

— Xo'sh?

— Qornini yordim. Oshqozonida bir lo'nda o't bor ekan. Men bu o'tni polietilen xaltachaga solib, uyga olib keldim va stolga to'kdim. Keyin, har gal ko'ngilsizlik ro'y berganda shu bir

lo'nda o'tga qarab o'ylardim: "Qiziq, nega endi sigir mana shu jirkanch, qo'lansa bo'tqani qayta-qayta kavsharkan-a?"

U kulimsiradi, labini qisdi va menga qaradi.

— Tushundim. Hech narsa demayman.

Men bosh irg'adim.

— Faqat bir narsani so'ramoqchiman. Maylimi?

— Qani.

— Odamlar nega o'ladi?

— Chunki evolyutsiya davom etmoqda. Yakka shaxslarda quvvat haddan tashqari kam, shuning uchun evolyutsiya avlodlar almashinuvi orqali amalga oshadi. Ammo bu nazariyalardan bittasi, xolos.

— Nima — hozir ham davom etayaptimi, o'sha evolyutsiya?

— Oz-ozdan.

— O'zi nima uchun davom etayapti?

— Bu masalada ham ko'plab xilma-xil qarashlar bor. Faqat bir narsani aniq aytish mumkin: Koinotning o'zi rivojlanayapti. Uning qandaydir maqsadi bormi, uni kimningdir xohishi yo'lga solayaptimi — bu alohida savollar. Koinot rivojlanayapti, biz esa — shu harakatning bir qismimiz, xolos.

Men viskini nariroq surib, chekdim va qo'shimcha qildim:

— Buning uchun quvvat qayerdan olinadi, hech kim bilmaydi.

— Hech kim?

— Hech kim.

U stakandagi muzni barmog'ining uchi bilan surgancha oppoq dasturxonga tikilib turardi.

— Mana, men o'laman, oradan yuz yil o'tadi — va hech kim men haqimda eslamaydi.

— Shunday bo'lsa kerak, — dedim men.

Restorandan chiqib, g'aroyib oydin tun bag'riga sho'ng'idik va jimjit bandargoh omborxonalarini yonlab sekin-sekin qadam bosdik. U yonimda borardi, men uning sochlarining hidini tuydim. Tol barglarini tarayotgan shamol yoz tugab borayotganini shivirlab esga solardi. Biroz yurib, u mening qo'limdan ushlab oldi — besh barmoqli qo'li bilan.

— Qachon Tokioga qaytasan?

— Keyingi hafta. Imtihon...

Jimlik.

— Qishda yana kelaman. Mavlud bayramiga. Tug'ilgan kunim 24-dekabrda.

U boshqa narsani o'ylayotganday, boshini irg'adi. Keyin so'radi:

— Sen Tog' echkisimisan?

— Ha. Sen-chi?

— Men ham. 10 yanvar.

— Bu burj negadir uncha xayrli emas. Iso Masih ham Tog' echkisi.

— Ha...

U qo'limni qulayroq ushlab oldi.

— Sensiz zeriksam kerak.

— Biz, axir, yana uchrashamiz-ku...

U javob bermadi.

Bir-biridan xarob omborxonalar tizilib turardi; g'ishtlar orasiga sirpanchiq to'q-yashil yo'sin chirmashgan. Baland qorong'i derazalarda — og'ir panjaralar, zang bosgan eshiklarda — savdo firmalarining yorliqlari. Tuyqusdan dimoqqa dengizning hidi urildi, omborxonalar qatori tugadi. Tolzor xiyobon ham ortda qoldi — daraxtlar, xuddi kasallangan tishlardek, to'kilib tushganga o'xshadi. Biz o't bosgan temir yo'llardan o'tib, tashlandiq to'lqinto'sarning tosh zinalariga o'tirdik va dengizni tomosha qila boshladik. Oldimizda kema ta'mirlanadigan joy doklar chiroqlari bilan yorishib turardi. Yukdan bo'shagan, suv chizig'i ko'tarilgan ko'rimsiz grek kemasi nari ketardi. Bortidagi oq bo'yoqni dengiz shamoli qizil zang bilan kemirgan, yon tomonlarini esa xuddi yara-

chaqaday chig'anoq bosgandi.

Biz ancha vaqt bir so'z demay dengizga, osmon va kemalarga qarab o'tirdik. Dengizdan esgan kechki shamol o't-o'lanlarni to'zg'itar, g'ira-shira qorong'ulik esa asta-sekin rangpar tunga aylanardi. Doklar tepasida yulduzlar miltilladi.

Uzoq jimlikdan so'ng u chap qo'lini musht qildi va o'ng qo'lining kaftiga asabiy tarzda bir necha marta urdi. Keyin qizargan kaftiga ma'yus tikilib qoldi.

— Hammani yomon ko'raman, — dedi qo'qqisdan.

— Meniyammi?

— Kechir. — U iymanib kaftini yana tizzasiga qo'ydi. — Sen unaqamassan.

— Unchalik emasman, a?

U jilmaygan ko'yi boshini irg'adi va titrayotgan qo'llari bilan olovni sigaretga tutdi. Tutun go'yo uning sochlarini o'rab olmoqchiday o'rladi, lekin tutunni shamol surib ketdi va qorong'ulikda tarqatib yubordi.

— Yolg'iz o'zim o'tirganimda odamlar men bilan gaplashishayotganini eshitaman.

Ayrimlarini taniyman, boshqalarini tanimayman... Otam, onam, maktabdagi o'qituvchilar

— har xil odamlar.

Men boshimni irg'adim.

— Va har xil bo'lmag'ur gaplarni gapirishadi. Sening o'lishingni xohlaymiz, deyishadi va hokazo. Yoki, umuman, allaqanday iflosliklarni...

— Qanaqa?

— Aytishni xohlamayman.

Ikki marta tortgach, u sigaretni charm shippagi bilan ezg'ilab o'chirdi va yonoqlariga barmoqlarini bosdi.

— Hecham yolg'on gapirgim kelmadi, to'g'risi...

— Tushunaman.

Yana sukut saqlab, to'liqinto'sarga kelib urilayotgan kuchsiz to'liqlar shovullashi ostida jimgina o'tirdik. Tasavvurga ham sig'maydigan darajada ko'p vaqt o'tdi.

Uning yig'layotganini ko'rib, barmog'im bilan ko'z yoshlaridan ho'l bo'lgan yuzini siladim va yelkasidan quchdim.

Yozning hidini men allaqachon unutganman. Avvallari hammasi boshqachaydi: dengiz suvining hidiyu olisdagi kema guvillashlari, qiz bolaning sochlaridan taralayotgan xushbo'y limon ifori, kechki shamolning esishiyu hurkak umidlar. Endi yoz tushga aylandi. Go'yo nusxa asliyatdan ko'chganday: bu yoqda bir millimetr, u yoqda bir millimetr — va hammasi allaqachon boshqacha.

36

Uning uyigacha yarim soatda yetib keldik.

Ajoyib oqshom pallasi. Yig'lab olgach, u birdan xursand bo'lib ketdi. Uyiga borayotib biz yo'l-yo'lakay do'konlarning bariga kirib chiqdik. Va bir talay ikir-chikir sotib oldik. Yer tutidan tayyorlangan tish pastasi, sohilda artinadigan gulli sochiq, bir nechta daniya mozaika pannolari, sharikli ruchkalarning olti xil rangdagi yig'masini xarid qildik. Tog' yo'lida ba'zan to'xtab, bandargohga qarab qo'ydik.

— Mashinani sen shunday tashlab qo'ydingmi?

— Keyin olib ketaman.

— Ertaga ertalab kech bo'lmaydimi?

— E, farqi yo'q!

Biz uning uyiga yetib kelgandik.

— Bugun yolg'iz qolgim kelmayapti, — dedi u tosh yo'lning chaqirtoshlariga qarab.

Men boshimni irg'adim.

— Unda sen poyabzallarni tozalay olmaysan-ku?

— Hechqisi yo'q, o'ziyam har zamon tozalasini.

— Qiziq tozalaydimi, yo'qmi?

— Bo'lmasam-chi? U o'z burchiga sodiq odam!

Tun sokin edi.

U sekin o'girilib, burnini yelkamga tiradi.

— Sovuq.

— Qanaqasiga “sovuq”? O'ttiz daraja-ku.

— Bilmadim. Sovuq, vassalom.

Oyoq uchidagi ko'rpani yig'ib olib, yelkalarini o'radim. Uni sezilar-sezilmas titroq bosgandi.

— O'zingni yomon his qilayapsanmi?

U bosh chayqadi:

— Qo'rqayapman.

— Nimadan qo'rqayapsan?

— Hamma narsadan. Sen qo'rqmayapsanmi?

— Mutlaqo.

U, go'yo mening javobimni kaftida salmoqlab ko'rayotganday biroz jim qoldi.

— Seksni xohlaysanmi?

— A-ha.

— Kechir. Bugun mumkinmas.

Indamay boshimni irg'adim.

— Meni yaqindagina operatsiya qilishdi.

— Abortmi?

— Ha.

Uning belimdan quchoqlab turgan qo'li bo'shashdi. Barmog'i yelkamda bir nechta doiracha chizdi.

— Qiziq... Hech nimani eslolmayman.

— Rostdanmi?..

— O'sha yigit haqida aytayapman. Butunlay unutibman. Hatto yuzini ham eslab bo'lmayapti.

Men uning sochini siladim.

— Sevib qolganday edim. To'g'ri, uzoqmas. Sen hech sevib qolganmisan?

— Ha.

— Yuzini ham eslaysanmi?

Men o'zim yurgan uchta qizning yuzlarini eslashga urindim. G'alati hol — birontasini ham aniq-tiniq eslay olmadim.

— Yo'q, — dedim men.

— G'alati-ya, to'g'rimi? Qiziq, nega shunday?

— Shunisi ma'qulroq bo'lsa kerak-da.

U boshini yelkamdani ko'tarmay irg'adi.

— Menga qara, agar juda xohlayotgan bo'lsang, balki biz buni qandaydir boshqacha qilarmiz?..

— Kerakmas. Qo'rqinchli joyi yo'q.

— Rostdanmi?

— Ha.

U yana menga yopishdi. Ko'kragi bilan qornimga. O'lguday pivo xumor qildi.

— Xuddi bir necha yil avval bari teskarisiga ketganday — o'shanday hozirgacha.

— “Bir necha” — bu qancha?

— O'n ikki. Yoki o'n uch. Otam kasal bo'lib qolgandan beri. O'shandan keyin hech narsani eslolmayman ham. Boshdan-oxir ifloslik. Doim boshimning ustida yovuz shamol esadi.

— Shamol yo'nalishini o'zgartiradi.

— Rostdan ham sen shunday deb o'ylaysanmi?

— Axir, u qachondir yo'nalishini o'zgartirishi kerak-ku...

U biroz jimib qoldi — sahro o'zining qaqrab yotgan qumiga mening so'zlarimni shimib olgan va meni faqat og'zimdagi taxir ta'm bilan qoldirganday.

— Men ham shunday harakat qilib ko'rdim. Lekin bo'lmayapti. Sevib qolishga ham urinib

ko'rdim, shunchaki chidamliroq bo'lishga ham. Bo'lmayapti — tamom-vassalom... Biz boshqa hech narsa haqida gapirmadik. Uning boshi mening ko'kragimda yotardi. U ancha vaqt qimir etmadi — xuddi uxlab qolgandek. U uzoq vaqt miq etmadi. Juda uzoq. Men goh mizg'ib, goh qorong'i shiftga termilib yotdim.
— Oyi...
Buni u shivirlab aytdi, go'yo tushiga bir nima kirganday. U uxlayotgan edi.

37

Salom, ishlar qalay? “En-i-Bi” radiosi gapirayapti, “Talablarga binoan ommabop qo'shiqlar” dasturi. Yana shanba oqshomi. Ikki soat — va bir talay zo'r musiqa. Darvoqe, yoz fasli tugay deb qoldi. U sizga yoqdimi? Yozni yaxshi o'tkazdingizmi? Bugun, birinchi plastinkani qo'yishdan avval, sizni bir maktub bilan tanishtiraman, uni biz yaqinda oldik. O'qiyman.

“Salom.

Men har hafta sizning eshittirishingizni bajonidil tinglayman. Kuzda kasalxonadagi hayotimga uch yil to'lishiga hatto ishongim ham kelmaydi. Vaqt rostdan ham tez o'tayapti. Albatta, mening havo sovutgich o'rnatilgan xonamning derazasidan kam narsa ko'rinadi, yil fasllarining almashishi men uchun juda muhim emas — lekin bir mavsum ketib boshqasi kelganda, yuragim shodlanib dukillaydi.

Yoshim o'n yettida, lekin men na o'qiy olaman, na televizor ko'ra olaman, na sayr qila olaman — hatto yotgan karavotimdan ag'darila olmayman ham. Shunday ahvolda uch yilni o'tkazdim. Bu xatni mening uchun opam yozayapti, u har doim yonimda. Menga qarayman deb u universitetni tashladi. Albatta, men undan juda minnatdorman.

To'shakda yotib o'tkazgan uch yil ichida, men bir narsani tushundim: hatto eng abgor ahvolda yotib ham bir nimalar o'rgansa bo'larkan. Aynan shuning uchun ham yashasa arziydi — hech bo'lmaganda oz-ozdan o'rganib.

Mening kasalim bu — orqa miya kasalligi. Juda og'ir. To'g'ri, tuzalib ketish ehtimoli ham bor. Uch foizgina... Bunday kasalliklarning tuzalib ketish darajasi shunaqa — menga buni shifokorim aytdi, u ajoyib inson. Uning gapiga qaraganda, mening tuzalishim yangigina pitcherning “Devlar”ni tor-mor qiluvchi hisob bilan mag'lubiyatga uchratishidan osonroq, biroq shunchaki yengib qo'ya qolishidan biroz qiyin ekan.

Ba'zan hech qachon tuzalmayman, deb o'ylaganimda qattiq qo'rquv bosadi. Shu qadar qo'rqamanki, birovni yordamga chaqiray deymen. Butun umr shiftga termilib karavotda toshday yotish — o'qimay, toza havoda sayr qilmay, sevmay — o'nlab yillar shu zaylda yotish, to'shakda qarib-qartayib, jimgina o'lish — bunga sirayam chidab bo'lmaydi.

Ba'zan yarim oqshom uyg'onib ketaman va umurtqa pog'onam eriyotganini eshitayotganday bo'lamen. Balki, u rostdan ham eriyotgandir?

Bas, yetar g'am-hasrat haqida. Opam bir kunda yuz martalab nasihat qilganidek, men faqat yaxshi narsalar haqida o'ylashga harakat qilaman. Tunda esa, yaxshilab uxlab olishga urinaman. Chunki yomon xayollar mening miyamga, odatda, tunlari keladi.

Kasalxona derazasidan bandargoh ko'rinib turadi. Har kun: tong saharda karavotdan turib, bandargohga bordim va ko'ksim to'lib dengiz hididan nafas oldim, deb tasavvur qilaman... Agar shunga mening qurbim yetganidaydi — hech bo'lmasa bir marta, menga bir marta ham yetardi — shunda, ehtimol, bu dunyo nega bunday yaratilganini tushungan bo'lardim. Menga shunday tuyuladi. Agar ozgina bo'lsa ham buni tushunganimda, unda balki qimirlamay yotishga mahkumligimga o'lgunimcha chidardim.

Ko'rishguncha. Yaxshi qoling.”

Imzosiz.

Men bu xatni kecha soat to'rtlarda oldim. Uni oshxonamizda qahva ichayotganimda o'qib chiqdim. Shom mahali, ishdan keyin bandargohga bordim va o'sha yoqdan tog'larga qaradim. Sening kasalxonangdan bandargoh ko'rinsa, demak, bandargohdan ham

sening kasalxonang ko'rinadi, to'g'rimi? Rostdan ham men juda ko'p chiroqlarni ko'rdim. To'g'ri, bu chiroqlarning qaysi biri sen yotgan xonada yonayotganini bilib bo'lmaydi. Bir xil chiroqlar faqirroq xonalarda, boshqalari — hashamatli uylarda yonib turgandi. Yana mehmonxonalarda, maktablarda, idoralarda ham chiroqlar yog'du sochardi... O'yladim: bir-biriga o'xshamagan odamlar shunchalik ko'p-a! Meni birinchi marta shunday tuyg'u chulg'adi. Va shu haqda o'ylaganimda, tuyqusdan ko'zimdan yosh dumaladi. Mening, axir, yig'lamaganimga juda ko'p bo'lgan. Senga rahmim kelganidan yig'lamadim, yo'q. Men boshqa bir narsani aytmogchiman. Va buni faqat bir marta aytaman, shuning uchun yaxshilab eshitib ol.

Men Sizlarning Hammalaringni Sevaman!

Agar o'n yildan keyin ham sen bu eshittirishni, men qo'ygan plastinkalarni va mening o'zimni eslasang — unda hozirgina aytgan so'zlarimni yodga ol.

Bu qizaloqning istagini ado etamiz. Elvis Presli, "Omading chopsin, go'zolim". Qo'shiq tugagandan so'ng esa, men yana bir soatu ellik daqiqa sho'x kuchukchaday qiziqchilik qilib turaman.

E'tiborlaring uchun tashakkur.

38

Tokioga jo'nab ketish oldidan "Jeyz-bar"ga kirib bordim — to'g'ri jomadon bilan. Bar hali ishlamayotgandi, lekin Jey meni ichkariga kiritdi va pivo quydi.

— Bugun kechki avtobus bilan ketayapman.

Jey, kartoshka tozalayotib, boshini irg'adi.

— Sensiz zerikarli bo'ladi. Maymunlarni quvishga ham to'g'ri keladi, — dedi u, barmog'i bilan peshtaxta ustidagi rasmni ko'rsatib. — Kalamushning zerikishi aniq.

— Ha.

— Tokioda, har qalay, qiziq bo'lsa kerak?

— E, hamma joyda bir xil.

— Ehtimol... Men o'zimizning shahrimizdan oxirgi marta Tokioda olimpiada bo'lgan yili chiqqanman.

— Shaharni yaxshi ko'rasanmi?

— O'zing aytding-ku: hamma joyda bir xil deb.

— To'g'ri.

— Lekin bir necha yildan keyin Xitoyga borib kelmoqchiman. Axir, bir marta ham bo'lmaganman. Bandargohda kemalarni ko'rsam — darrov miyaga shunaqa fikrlar keladi.

— Mening tog'am Xitoyda o'lgan.

— Yo'g'-e... U yerda ko'p odam halok bo'lgan. Lekin baribir hamma bir-biriga birodar.

Jey meni yana pivo bilan mehmon qildi. Hatto kartoshka qovurib, yelim xaltachaga solib berdi.

— Rahmat.

— Osh bo'lsin. Kayfiyat shundayki... Bolalar tez bo'y cho'zayapti — qayrilib qarashga ulgurmayсан. Sen bilan tanishganimda, sen hali maktabda o'qirding.

Kulib yubordim, keyin bosh irg'ab xayrlashdim.

— Omon bo'l, — dedi Jey.

"26 avgust", deb ta'kidlardi bar devoridagi taqvim. Sana tagida hikmatli so'z joylashgan: "Afsuslanmay bergan kishi doim oladi".

Chipta sotib olib, o'rindiqa o'tirdim va chiroqlarga qaradim. Oqshom tushib kelardi, chiroqlar o'cha boshladi. Nihoyat ko'cha yoritqichlariyu, neon reklama qoldi. Dengiz shamoli kemandi gudogini elas-elas olib kelardi.

Avtobus eshigining ikki tomonida ikki nafar chiptachi turardi. Bittasi chiptamga qarab: "Yigirma birinchi joy, chayna", dedi.

— Chayna?

— Ha-da, 21-S. Birinchi harfi bo'yicha "Ey" — Amerika, "Bi" — Braziliya, "Si" — Chayna*, "Di" — Daniya. Anavi chalkashtirmasligi uchun.

Chiptachi tushiladigan joylar jadvalini tekshirayotgan sherigini ko'rsatdi. Bosh irg'ab avtobusga chiqdim va 21-S joyga o'tirib, qovurilgan, hali hovuri ko'tarilmagan kartoshkani yeyishga tutindim.

Yonginamizdan juda ko'p narsalar o'tib ketadi — ularni hech kim tutib qololmaydi. Shu alfozda yashayapmiz.

39

Boshimdan kechirganlarim shu yerda tugaydi, lekin, albatta, xotima ham bor.

Men yigirma to'qqizga kirdim, Kalamush esa o'ttizda. Judayam oz. Ko'chani kengaytirishayotganda "Jeyz-bar"ni qayta qurishdi — binoyiday batartib muassasaga aylandi. Bunga qaramay, baribir, Jey burungiday har kuni bir chelak kartoshka tozalaydi, kunda-shundalar esa, o'sha-o'sha — pivo simirishib, eski zamonlarda qanday yaxshi bo'lgani haqida vaysashadi.

Men uylandim. Tokioda yashayapman.

Sem Pekinpaning* yangi filmi ekranlarga chiqqanda, xotinim bilan kinoteatrga boramiz, qaytishda esa Xibiya bog'iga kirib, ikki bankadan pivo ichamiz va kaptarlarni makkabodroq bilan oziqlantiramiz. Sem Pekinpa filmlari orasidan menga hammasidan ko'ra "Alfredo Garsiyaning boshini keltir" yoqadi, xotinim esa "Soqchilar"ni yaxshi ko'radi. Boshqa filmlar orasida men "Kukun va olmos"ni* yaxshi ko'raman — xotinim esa "Singlim Joanna"ni yaxshi ko'radi. Uzoq vaqt birga yashasang, hatto didlar ham o'xshab qolarkan. Men baxtlimanmi? Agar mendan so'rasangiz, ha, shunday bo'lsa kerak, deb javob berishdan boshqa ilojim qolmaydi.

Xullaskalom, orzu — u, axir, shunaqa ko'rinishda-ku.

Kalamush qissa yozishni davom ettirayapti. Har yili Mavlud ayyomida u menga bir necha nusxadan yuboradi. O'tgan yili jinnixonada ishlaydigan oshpaz haqida edi, undan avvalgi yili — "Aka-uka Karamazovlar" motivida yozilgan qiziqchilar to'dasi haqidagi voqea edi. Kalamushning qissalarida hali ham jinsiy aloqa sahnalari yo'q va birona ham qahramon o'lmaydi.

Qo'lyozmaning birinchi betida doim shunday yozilgan bo'ladi:

"Tug'ilgan kuning bilan!"

va keyin:

"Mavlud ayyomi muborak!"

Men, axir, 24 dekabrda tavallud topganman-da.

Chap qo'lining barmog'i to'rtta qizni boshqa biror marta ko'rmadim. Qishda shaharga qaytganimda, u allaqachon plastinkalar do'konidan bo'shab, uyidan ko'chib ketgandi. Odamlar to'dasi va vaqt girdobi uni izsiz yutib yuborgandi.

Yozda o'zimning shahrimga kelganimda, men doim omborxonalar yonidagi o'sha yo'ldan o'tib, to'liqinto'sarning tosh zinalariga o'tiraman va dengizga qarayman. Ba'zan o'zimni yig'lab yuboradiganday his qilaman — lekin ko'zlarimdan yosh oqmaydi. Shunaqa gaplar.

"Kaliforniya qizlari" yozilgan plastinka haliyam javonim tokchasining burchagida turibdi. Yoz kelganda, men uni olib eshitaman. Keyin pivo ichaman va Kaliforniya haqida o'ylayman.

Plastinkalar terib qo'yilgan tokcha yonida stol bor, unga mo'miyoga o'xshash narsaga aylanib qolgan bir tuyur quruq o't qadab qo'yilgan. Bu o'sha, sigir qornidan olingan luqma.

Halok bo'lgan frantsuz bo'limidagi qizning fotosurati ko'chganda qayergadir yo'qoldi.

"Bich Boyz" esa uzoq tanaffusdan so'ng yangi plastinkasini chiqardi.

“Ularga Kaliforniya qizlariga yetishga yo‘l bo‘lsin...”

40

Va Derek Xartfild haqida oxirgi marta.

Xartfild 1909 yil Ogayo shtatidagi kichik shaharchada tug‘ildi. O‘sha yerda o‘tib-ulg‘aydi. Otasi kamgap telegrafchi, onasi — pakana semiz ayol, pishiriqlar pishirish va yulduzlarga qarab fol ochishga mohir bo‘lgan. Kichkina Xartfild badqovoq bola bo‘lib o‘tdi, uning do‘stlari yo‘q edi. U bo‘sh vaqtini komikslar va oldi-qochdi jurnallar o‘qish bilan — yoki onasining pishiriqlarini yeb o‘tkazgan. Maktabni bitirib shahar pochtasida ishlashni boshlaganday bo‘lgan-u, lekin ko‘p o‘tmay romanlar yozishga kirishishni ma‘qul ko‘rgan. 1930 yili u o‘zining beshinchi “G‘alati erkaklar” hikoyasining qo‘lyozmasini yigirma dollarga sotdi. Keyingi yili oyiga 70 mingtadan so‘z yozdi, yana bir yildan so‘ng sermahsulligi 100 mingta so‘zgacha oshdi, o‘limi arafasida bu ko‘rsatkich 150 mingga yetdi. Uzunquloq gaplarga qaraganda, har yarim yilda u yangi “Remington” yozuv mashinkasini sotib olarkan.

Asosan, u fantastik va sarguzasht asarlar yozgan. Mana, masalan, qirq qismli “Uord sarguzashtlari” — uning yozganlari orasida eng mashhuri. Bu asar sahifalarida Uord uch marta o‘ladi, besh ming dushmani o‘ldiradi va marsliklarni ham qo‘shganda uch yuz yetmish besh ayolni maftun qiladi. Bu turkumdan ayrim parchalarini tarjimada o‘qish mumkin.

Xartfild juda ko‘p narsalarni yomon ko‘rgan. Pochtani, maktabni, nashriyotlarni, sabzini, ayollarni, itlarni — hammasini sanab bo‘lmaydi. Faqat uch narsani yaxshi ko‘rgan: o‘qotar qurolni, mushuklar va onasi tayyorlagan pishiriqlarni. “Paramaunt” kinostudiyasi va MBRdan keyin, ehtimol, Shtatlardagi eng yaxshi o‘qotar qurollar kolleksiyasi faqat unda bo‘lgan. Bu qurollar orasida zenit qurilmalariyu tankka qarshi otiladigan granatomyotlar yo‘q, xolos. Lekin kolleksiyada uning faxri — 38 kalibrli, dastagi marvarid bilan naqshlangan va o‘qdonida yagona o‘qi turgan revolver bor edi. “Qachondir bu o‘qni manglayimga qadayman”, — tez-tez shunday derdi Xartfild.

Ammo 1938 yili, onasining qazosidan keyin, u Nyu-Yorkka borib, “Empayr-Steyt-Bilding”ga chiqib tomdan sakradi va qurbaqaday majaqlandi.

Qabr toshiga, vasiyatiga binoan, Nitshedan quyidagi gap bitilgan:

“Bizga kunduzning yorug‘ida tunning teranligini anglash imkoni berilganmikan?”

YANA XARTFILD HAQIDA

(Xotima o‘rnida)

Derek Xartfildning kitoblarisiz men o‘zimcha yozib ketolmasdim, deb aytib bo‘lmaydi. Lekin bir narsani bilaman: bu holatda mening yo‘lim mutlaqo boshqacha bo‘lardi. Yuqori sinflarda men bir necha bor Xartfildning yupqa muqovali kitoblarini sotib olganman — ularni Kobening eski kitoblar do‘koniga xorijlik dengizchilar topshirardi. Bittasi 50 iyen. Agar ularni kitob do‘konidan boshqa joyda uchratganimda, bu matohlarni kitob deb o‘ylash xayolimga ham kelmasdi. Muqovalari dag‘al, varaqlari sarg‘ayib ketgan... Ular keyinchalik mening stolimda paydo bo‘lishi uchun qandaydir yuk tashuvchi kemalar yoki esminetslarda dengizchilar yostig‘ining tagida Tinch okeanidan suzib o‘tishardi.

* * *

Bir necha yildan keyin, faqat Xartfildning qabrini ziyorat qilish niyatida — men o‘zim okeanni kesib o‘tdim. Qabrning qayerdaligini Xartfild ijodiga qiziqqan (va buning ustiga yagona) tatqiqotchi Tomas Makklyurning xatidan bilib oldim. “Mo‘jazgina qabr, tovonday keladi. Ko‘rmay qolmagin tag‘in”, deb yozgandi u menga.

Nyu-Yorkda ulkan tobutnusxa avtobusga o‘tirdim va tonggi yettida Ogayo shtatidagi kichkina shaharchaga yetib bordim. Mendan boshqa, bu bekatda, birorta ham yo‘lovchi tushmadi. O‘t bosgan maydonni kesib o‘tib, qabristonga kirib qoldim. Maydoniga ko‘ra, qabriston shaharning o‘zi bilan bellashishi mumkin edi. Boshim ustida to‘rg‘aylar

chirqillab, havoda doira yasab uchardi.

Xartfildning qabrini bir soatcha qidirib topdim. Shu atrofdan uzilgan chang bosgan yovvoyi atirgullarni qabrga qo'yib, biroz kaftlarimni qovushtirib turdim, keyin o'tirib, cheka boshladim. May quyoshining mayin nulari ostida hayot va o'lim — ikkalasi ham bir xil — xayrli tuyuladi. Boshimni ko'tarib, ko'zlarimni yumdim — va bir necha soat tinimsiz to'rg'aylar qo'shig'ini tingladim.

Mana, bu hikoya qayerdan boshlanib, davom etib kelayapti. U meni qayerga olib kirib qo'rganini esa o'zim ham bilmayman. "Koinotning murakkabligiga qiyosan, — deb yozadi Xartfild, — bizning dunyomiz yomg'ir chuvalchangining miyasiday gap".

Men rostdan ham shunday bo'lishini xohlayman.

* * *

Nihoyat, Xartfild asarlari haqida gapirarkanman, Tomas Makklyurning yirik tadqiqoti "Bepusht yulduzlar afsonasi" (Thomas McClure; "The Legend of Sterile Stars", 1968)dan olingan ko'chirmalardan foydalanganimni aytib o'tishim kerak. Janob Makklyurga o'zimning chuqur minnatdorchiligimni izhor etaman.

May 1979 y.

Rus tilidan Alisher Otaboyev tarjimasi

"Jahon adabiyoti" jurnali, 2008 yil, 9-son

* «Qizigan tomdagi mushuk» — Amerikalik dramaturg Tenessi Uilyamsning (1911—1983) pesasi (1955).

* Tatami — (poxol solingan ko'rpacha) bir yarim kvadrat metrcha joyni oladi va uy-joy maydonining o'lchov birligi vazifasini bajaradi.

* "Gimlet" — layma sharbatini qo'shib, asosan jin va aroqdan tayyorlanadigan kokteyl.

* Jyul Mishle (1798-1874) — frantsuz tarixchisi, ko'p jildli "Frantsiya tarixi" muallifi.

"Jodugar" (1862) kitobida cherkov tomonidan jodugarligi uchun ta'qibga olingan ayollarni himoya qilib chiqqan.

* Jin Seberg (1938-1979) — amerikalik kinoaktrisa.

* "Triumph TR-3" — ingliz sport mashinasi markasi.

* "Don't think twice, it's all right" — O'yga botma, hammasi joyida (ingl.). Bob Dilanning shu nomdagi qo'shig'idan bir satr.

* Nara — Kansay hududidagi shahar, Yaponiyaning qadimgi poytaxti.

*Agarda tuz kuchini yo'qotsa, uni yana qanday sho'r qilish mumkin? — Matto bayon etgan Muqaddas Xushxabar, 5:13.

* "Flandriya ko'ppagi" (1871) — ingliz yozuvchisi Kidning (1839–1908) bolalar uchun yozgan sentimental qissasi.

* YWCA (Young Women's Christian Association) — yosh ayollarning Nasroniylar uyushmasi, xalqaro xayriya tashkiloti.

* Oui — Ha (fran.)

* "Kvay daryosidan o'tgan ko'prik" — 1957 yilgi amerika-britan kinofilmi (rej. Devid Lin). Film voqealari Ikkinchi jahon urushi paytida bo'lib o'tadi. Yaponlarga asir tushgan ingliz polkovnigi, G'arbning aqlan ustunligini namoyish etish maqsadida, dushman qo'shini uchun ko'prik qurishga rahbarlik qilishga rozi bo'ladi. Qurilgan ko'prikni qo'poruvchilar guruhi portlatadi.

* "Devlar" — "Giants" ("Kyodzin") — Yaponiyadagi eng kuchli beysbol jamoasi.

* Chayna (China) (ingl.) — Xitoy.

* Sem Pekinpa (1925-1984) — amerikalik kinorejissyor.

* "Kukun va olmos" — Anjey Vayda filmi, 1958 y.